O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

Huquqiy axborotni tayyorlash, tarqatish va manzilli yetkazish bo‘yicha

USLUBIY QO’LLANMA



TOSHKENT – 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

“Huquqiy axborotni tayyorlash, tarqatish va manzilli yetkazish bo‘yicha”

USLUBIY QO‘LLANMA

TOSHKENT – 2026

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Huquqiy axborot boshqarmasi boshlig‘i
F. Sh. Tojiyevning umumiy tahriri ostida

Tuzuvchilar:

J. Nuritdinov – Adliya vazirligi Huquqiy axborot boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari;
Sh. Sulaymonov – Adliya vazirligi Huquqiy axborot boshqarmasi bosh maslahatchisi.

Mazkur qo‘llanma huquqiy axborotni yetkazish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi adliya organlari xodimlari, shuningdek davlat organlari va tashkilotlarining xodimlari (yuridik xizmat xodimlari, matbuot kotibi va boshqalar) hamda huquqiy axborotdan foydalanuvchi fuqarolar va mazkur sohada dastlabki tushuncha va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishni xohlovchi barcha fuqarolar uchun ishlab chiqilgan.

Mazkur Uslubiy qo‘llanmadan tijorat yo‘lida foydalanish maqsadida nusxa ko‘chirish va mualliflar roziligisiz o‘zgartirishlar kiritish taqiqlanadi.

MUNDARIJA

Kirish **4**
I bob. Umumiy qoidalar **6**
1.1. Uslubiy qo‘llanmaning maqsadi va vazifalari 6
1.2. Qo‘llanmani qo‘llash doirasi 6
1.3. Asosiy tushunchalar 6
II bob. Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlashda davlat organlari va tashkilotlarining vakolatlari hamda ishtiroki **8**
2.1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining sohadagi vakolatlari 8
2.2. Adliya vazirligi tomonidan yaratilgan platforma va sahifalar 10
2.3. Vazirliklar hamda idoralarning sohadagi vakolatlari va majburiyatlari 16
2.4. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash sohasidagi vakolatlari 17
2.5. Axborot-kutubxona muassasalarining ishtiroki 18
2.6. Ta’lim muassasalarining ishtiroki 19
2.7. Mahalla fuqarolar yig‘inlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolarning ishtiroki 20
III bob. Huquqiy axborotni tarqatish usullari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari **23**
3.1. Huquqiy axborotni tarqatish usullari 23
3.2. Normativ-huquqiy hujjatlar matnlarini yuborish yo‘li bilan tarqatish 23
3.3. Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy e’lon qilish yo‘li bilan tarqatish 24
3.4. Normativ-huquqiy hujjatlarni norasmiy e’lon qilish 25
3.5. Normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy targ‘ibot yo‘li bilan tarqatish 25
3.6. Jismoniy va yuridik shaxslarga ularning so‘rovlariga ko‘ra huquqiy axborot taqdim etish 27
IV bob. Kontent pasportini shakllantirishning ahamiyati **29**
4.1. Kontent pasportini shakllantirishning ahamiyati 29
4.2. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari mazmunini yoritishga doir kontent pasporti 29
4.3. Normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini yoritishga doir kontent pasporti 30
4.4. Amaliyotdagi muammolar tahlili 31
4.5. Loyiha bo‘yicha kontent pasportining o‘ziga xos jihatlari 33
4.6. Aholining muhokamadagi ishtirokini oshirish 33
4.7. Kutilayotgan ijobiy natijalar 34
V bob. Huquqiy kontentlarni tarqatish standarti **35**
5.1. Standartning maqsadi va qo‘llash doirasi 35
5.2. Huquqiy kontentni tarqatishga qo‘yiladigan umumiy talablar 35
5.3. Aholining yoshi va ayrim toifalari bo‘yicha huquqiy kontent shakli, uslubi va tarqatish kanallari 35
5.4. Kontent shakllariga qo‘yiladigan texnik talablar 36
5.5. Yagona maqsadli ko‘rsatkichlar 37
VI bob. Ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy axborot yetkazishning o‘ziga xos jihatlari **38**
6.1. Ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy veb-saytlardan foydalanish holati hamda ularni yuritish bo‘yicha tavsiyalar 38
6.2. Ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy sahifalarni yuritish etikasi va huquqiy kontentga qo‘yiladigan amaliy talablar 40
1-ilova. O‘zbekiston Respublikasida aholining huquqiy savodxonligi darajasiga qo‘yiladigan tavsiyaviy talablar *(yosh toifalari bo‘yicha)* **46**
2-ilova. O‘zbekiston Respublikasida aholining ayrim toifalari huquqiy savodxonligi darajasiga qo‘yiladigan tavsiyaviy talablar *(aholining ayrim toifalari bo‘yicha)* **532**
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati **654**

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning mazmun-mohiyatini aholiga o‘z vaqtida, to‘liq va tushunarli yetkazish, fuqarolarning huquqiy axborotdan erkin foydalanishini ta’minlash davlat huquqiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar fuqarolar hayotida amaliy natija berishi uchun ularning mazmuni nafaqat e’lon qilinishi, balki tegishli aholi qatlamlariga sodda, aniq va manzilli shaklda yetkazilishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasiga ko‘ra, har kim istalgan **axborotni izlash, olish va tarqatish** huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilangan. Shuningdek, axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yilishi mumkinligi nazarda tutilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 7-sentabrdagi “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi O‘RQ – 443-son Qonuni bilan huquqiy axborotni tarqatish hamda undan foydalanishni ta’minlashning ochiqlik, oshkoralik, o‘z vaqtidalik, huquqiy axborotni izlash va olish erkinligi kabi asosiy prinsiplari belgilangan. Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlari, ta’lim muassasalari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining mazkur yo‘nalishdagi vazifa va vakolatlari mustahkamlangan.

So‘nggi yillarda huquqiy axborotni yetkazish tizimida an’anaviy targ‘ibot usullaridan zamonaviy, raqamli va natijaga yo‘naltirilgan mexanizmlarga o‘tish bo‘yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi “Huquqiy axborotni proaktiv shaklda yetkazish tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 160-son Farmoni bilan huquqiy axborotni **proaktiv shaklda** yetkazish, huquqiy targ‘ibotda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish va ish jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha yangi vazifalar belgilandi.

“Proaktiv qonunchilik”, “aqlli targ‘ibot” hamda **“huquqiy targ‘ibot loyihadan boshlab”** tamoyillarining joriy etilishi huquqiy axborotni fuqaro mustaqil ravishda izlashini kutib turmasdan, uning kundalik hayoti, ijtimoiy holati va ehtiyojidan kelib chiqib yetkazishni nazarda tutadi. **Lex.uz, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz), Soliq.uz, “Ijro.gov.uz”, “Raqamli mahalla”** platformasi va boshqa axborot tizimlarining o‘zaro integratsiyasi huquqiy axborotni tezkor, manzilli va qulay shaklda yetkazish imkoniyatlarini kengaytirdi. **“Adliya TV”**, ijtimoiy tarmoqlar, podkastlar, infografikalar, qisqa

[1] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 33-modda

videoroliklar va boshqa raqamli vositalar esa huquqiy kontentlarning qamrovi hamda ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, davlat organlari va tashkilotlarida huquqiy axborot materiallarini tayyorlash hamda tarqatish amaliyotining turlicha shakllangani, maqsadli auditoriyani aniqlash, kontent sifatini va tarqatish manzilligini belgilash, natijadorlikni o‘lchash bo‘yicha yagona mezonlarning mavjud emasligi mazkur yo‘nalishda yagona uslubiy yondashuvni joriy etishni taqozo etadi.

Ayrim hollarda targ‘ibot ishlari aholining ehtiyojidan ko‘ra tadbirlar soniga qarab belgilanishi, murakkab yuridik tildan foydalanilishi yoki barcha auditoriyaga bir xil mazmundagi axborot taqdim etilishi **huquqiy axborotning amaliy samaradorligini** pasaytirishi mumkin.

Mazkur Uslubiy qo‘llanma huquqiy axborotni tanlash, uning ta’sir doirasini aniqlash, maqsadli auditoriyani belgilash, kontent pasportini shakllantirish, huquqiy materiallarni sodda va xalqchil tilda tayyorlash, tarqatish usullarini aniqlash hamda erishilgan natijalarni baholash bo‘yicha yagona amaliyotni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan.

Qo‘llanmaning joriy etilishi davlat organlari va tashkilotlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish, huquqiy kontentlarning ishonchliligi va sifatini ta’minlash, samarasiz tadbirlarni qisqartirish, vaqt hamda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Eng muhimi, huquqiy axborotni **“barcha uchun bir xil”** shaklda emas, balki **aholining yoshi, ijtimoiy holati, kasbi, axborot olish imkoniyati va real ehtiyojlarini** hisobga olgan holda manzilli yetkazishga xizmat qiladi.

Mazkur uslubiy qo‘llanma huquqiy axborotni fuqarolarga sodda, tushunarli, ishonchli va manzilli shaklda yetkazishning amaliy yondashuvlarini belgilaydi. Qo‘llanma huquqiy targ‘ibot materiallarini ishlab chiqishdan boshlab ularni manzilli tarqatish, bunda aholining ayrim toifalariga alohida e’tibor qaratish va samaradorlikni baholashgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi.

I BOB. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Uslubiy qo‘llanmaning maqsadi va vazifalari

Mazkur Qo‘llanmada quyidagi asosiy maqsadlarni amalga oshirish nazarda tutilgan:

huquqiy axborotni tarqatish va huquqiy targ‘ibotni amalga oshirishda davlat organlari va tashkilotlarining vazifalarini **sodda shaklda** tushuntirish;

huquqiy axborotga ehtiyojni aniqlash va **maqsadli auditoriyani** belgilash;

huquqiy kontentlarni **sodda** va **manzilli** yetkazish;

kontent pasportini shakllantirish orqali har bir materialning maqsadi, manbasi va **tarqatish rejasini** ishlab chiqish;

maqsadli auditoriyadan kelib chiqib ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy axborotni tayyorlash va aholiga yetkazishda asosiy e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan mezonlarni belgilash;

huquqiy kontentlarni aholining ayrim toifalaridan kelib chiqib yetkazish tizimini yo‘lga qo‘yish.

1.2. Qo‘llanmani qo‘llash doirasi

Uslubiy qo‘llanma adliya organlari xodimlari, shuningdek huquqiy axborotni tarqatishni amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari xodimlari *(shu jumladan, tashkilotlarning yuridik xizmati xodimlari, matbuot kotiblari va boshqalar)*, ta’lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda o‘zini-o‘zi boshqarish organlari uchun qo‘llaniladi.

Shuningdek, Uslubiy qo‘llanmadan jismoniy va yuridik shaxslar o‘z ehtiyojlariga ko‘ra foydalanishi mumkin.

1.3. Asosiy tushunchalar

huquqiy axborot – normativ-huquqiy hujjatlarning, ularga oid rasmiy sharhlarning, normativ-huquqiy hujjatlarning qo‘llanilish tartibi to‘g‘risidagi tushuntirishlarning, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qarorlarining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qonunchilik qo‘llanilishi masalalari bo‘yicha qarorlarining matnlari, shuningdek sud amaliyotini umumlashtirish materiallari[2];

huquqiy kontent – qonunchilik hujjatlari mazmunini aholiga sodda, aniq va tushunarli shaklda yetkazish, fuqarolarning huquqiy ong va madaniyatini oshirish hamda huquq va majburiyatlari haqida xabardor qilishga qaratilgan axborot materiali;

kontent pasporti – huquqiy kontentning mavzusi, maqsadi, shakli, maqsadli auditoriyasi, tarqatish kanallarining turi va vositalarini, muddati va mas’ullarini belgilovchi uslubiy hujjat;

kontentni tarqatish standarti – fuqarolarning yoshi, ijtimoiy holati va boshqa alohida xususiyatlariga qarab qaysi format, uslub va kanal orqali kontent yetkazilishi lozimligini belgilovchi qoidalar majmui;

[2] “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi O‘RQ – 443-son Qonun

KDY8962

huquqiy axborotdan foydalanish – huquqiy axborotni erkin olish va undan foydalanish imkoniyati;

huquqiy axborotni tarqatish – nomuayyan doiradagi shaxslarni huquqiy axborot bilan tanishtirishga qaratilgan harakatlar[3];

manzilli targ‘ibot – huquqiy axborotni muayyan maqsadli auditoriyaning ehtiyoji, yoshi, ijtimoiy holati va axborot olish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, tegishli shakl va tarmoqlar orqali yetkazish faoliyati;

yosh toifasi bo‘yicha tavsiyaviy talablar – fuqarolarning yoshiga qarab qanday huquqiy bilimlarga ega bo‘lishi lozimligini belgilab beruvchi mezon;

aholining muayyan toifalari – yoshi, kasbi, ijtimoiy holati, bandligi, ehtiyoji yoki boshqa umumiy xususiyatlari asosida ajratiladigan aholi guruhi.

[3] “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi O‘RQ – 443-son Qonun

II BOB. HUQUQIY AXBOROTNI TARQATISH VA UNDAN FOYDALANISHNI TA’MINLASHDA DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARINING VAKOLATLARI HAMDA ISHTIROKI

2.1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining sohadagi vakolatlari

“Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasiga muvofiq, Adliya vazirligi mazkur sohada maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Vazirlikning ushbu sohadagi vakolatlari quyidagi jadvalda asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlarga bo‘linib, mazmuni qisqacha bayon etilgan.

1-jadval. Adliya vazirligining huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash sohasidagi vakolatlari

Yo‘nalish	Vakolat	Amalga oshiriladigan ishlar
1. Normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilib olish va yetkazish	**hujjatlarni olish**	davlat organlari va tashkilotlardan ular qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarning matnlarini hamda zarur bo‘lgan taqdirda, ularga doir axborot-tahliliy materiallarni *(normativ-huquqiy hujjatning konsepsiyasi bayon etilgan tushuntirish xati, o‘zgartish va qo‘shimchalar tushuntirilgan holdagi taqqoslash jadvali va boshqalar)* qog‘ozda va elektron shaklda oladi
	elektron tarqatish	normativ-huquqiy hujjatlar matnlarining hamda zarur bo‘lgan taqdirda, tegishli axborot-tahliliy materiallarning barcha davlat organlari va tashkilotlarga elektron shaklda yuborilishini ta’minlaydi
	rasmiy e’lon qilish	normativ-huquqiy hujjatlarning rasmiy e’lon qilinishini amalga oshiradi
2. Qonunchilik hujjatlari hisobini yuritish	**hisob yuritish tartibini tasdiqlash**	normativ-huquqiy hujjatlarning tizimlashtirilgan hisobini yuritish tartibini tasdiqlaydi
	davlat hisobini yuritish va tizimlashtirish	normativ-huquqiy hujjatlarni davlat hisobiga olish va qonun hujjatlarini tizimlashtirish ishlarini amalga oshiradi
	nazorat nusxalarini yuritish	qonunlar; Oliy Majlis palatalari qarorlari; Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari; Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari; vazirliklar, idoralar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining normativ-huquqiy hujjatlari nazorat nusxalarini yuritadi
	hujjatlar fondini shakllantirish	normativ-huquqiy hujjatlarning fondini shakllantiradi
3. Qonunchilik milliy bazasini yuritish	**milliy bazani yuritish**	O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasini shakllantiradi va yuritadi, undan jismoniy va yuridik shaxslarning belgilangan tartibda foydalanishini ta’minlaydi
4. Muvofiqlashtirish va uslubiy rahbarlik qilish	**idoralararo kengash ishini tashkil etish**	huquqiy targ‘ibot va ma’rifat bo‘yicha davlat organlari ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha idoralararo kengashning ishini tashkil etadi

Yo‘nalish	Vakolat	Amalga oshiriladigan ishlar
	faoliyatni muvofiqlashtirish	davlat organlari va tashkilotlarning huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, bu faoliyatga uslubiy rahbarlik qiladi hamda uni nazorat qiladi
	qonun hujjatlariga rioya etilishini monitoring qilish	huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli monitoringni tashkil etadi
	tahlil va takliflar tayyorlash	huquqiy axborotning tarqatilishi holatini tizimli tarzda tahlildan o‘tkazadi hamda mazkur sohadagi qonun hujjatlarini va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi
5. Huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish	**hamkorlikda targ‘ibot tashkil etish**	davlat organlarini, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini, nodavlat notijorat tashkilotlarini, ommaviy axborot vositalarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb etgan holda jamiyatda huquqiy targ‘ibotni tashkil etadi
	namunaviy rejani tasdiqlash	normativ-huquqiy hujjatlarni ijrochilarga yetkazish hamda ularning mohiyati va ahamiyatini aholi o‘rtasida tushuntirish bo‘yicha namunaviy tadbirlar rejasini tasdiqlaydi
6. Xalqaro hamkorlik	**xalqaro hamkorlikni amalga oshirish**	huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi
7. Senatga axborot taqdim etish	**yillik axborot berish**	Oliy Majlis Senatiga huquqiy targ‘ibot va ma’rifatning holati haqida har yili axborot taqdim etadi

Qo‘shimcha: *Adliya vazirligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.*
Izoh: *yo‘nalishlar modda mazmunini tushunarli ko‘rsatish uchun shartli ravishda guruhlangan.*

Vazirlik vakolatlari boshqa qonunchilik hujjatlarida ham belgilangan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi “Huquqiy axborotni proaktiv shaklda yetkazish tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 160-son Farmoniga muvofiq, 2026-yil 1-martdan huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash tizimi o‘rniga **normativ-huquqiy hujjatlar matnlarini ijrochilarga yetkazish, ularning mohiyati va ahamiyatini ijrochilar hamda keng aholi qatlamlariga tushuntirish** ishlarini **“Ijro.gov.uz”** idoralararo yagona elektron ijro intizomi tizimi orqali nazorat qilish tartibi joriy etilgan[4].

Yuqoridagilarga ko‘ra, adliya organlari huquqiy axborotni yetkazish bo‘yicha faqat targ‘ibotchi emas, balki butun tizimni muvofiqlashtiruvchi, uslubiy rahbarlik qiluvchi va nazorat qiluvchi vakolatli organ hisoblanadi. Huquqiy targ‘ibot esa barcha davlat organlari va tashkilotlarining umumiy vazifasi bo‘lib, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha manzilli targ‘ibot tadbirlari tizimli tashkil etib borilishi lozim.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi PF – 160-son Farmoni.

2.2. Adliya vazirligi tomonidan yaratilgan platforma va sahifalar

Aholiga huquqiy axborotni yetkazishda ushbu sohadagi vakolatli organ hisoblangan Adliya vazirligi tomonidan elektron platformalar va ijtimoiy tarmoqlarda sahifalar yaratilgan.

Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil sentabr oyi holatiga **11 ta internet platforma va mobil ilova** hamda ijtimoiy tarmoqlarda **37 ta sahifa** *(23 ta respublika darajasida vazirlik va muassasalar hamda 14 ta hududiy adliya organlari)* yuritiladi. Quyida har bir platforma va sahifalar belgisi *(ikonka)*, elektron havolasi, nima maqsadda ishlab chiqilgani va asosan kim uchun foydali ekanligi ko‘rsatilgan.

Foydalanish tartibi: *elektron nusxada tegishli havola orqali sahifaga o‘tiladi. Bosma nusxada QR-kod telefon kamerasi yordamida skanerlanadi. Ehtiyojga mos platformani tanlashda* ***“Asosan kim uchun foydali”*** *ustunidagi ma’lumotlarga e’tibor qarating.*

2-jadval. Adliya vazirligining internet platformalari, mobil ilovalari va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari

T/r	Platforma / kanal	Elektron havola	Nima maqsadda ishlab chiqilgan
1	**Lex.uz** *Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi*	lex.uz QR-kodni skanerlang Kuniga 40 mingdan ortiq foydalanuvchi	normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy e’lon qilish va ularning amaldagi (tahrirlangan) matnlarini bepul taqdim etish
2	**LexAI** *Sun’iy intellekt asosidagi huquqiy yordamchi*	ai.lex.uz QR-kodni skanerlang	huquqiy savollarga sun’iy intellekt yordamida 24/7 tezkor javob berish, hujjat tuzishda ko‘maklashish
3	**Advice.uz** *Bepul huquqiy maslahat portali*	advice.uz QR-kodni skanerlang Kuniga 12 mingdan ortiq foydalanuvchi	fuqarolarga bepul huquqiy maslahat berish: savol-javob, sodda tildagi maqolalar va videolar
4	**Yurxizmat.uz** *Hujjat namunalari portali*	yurxizmat.uz QR-kodni skanerlang 2 060+ namuna; kuniga 4 mingdan ortiq foydalanuvchi	davlat tashkilotlarining yuridik xizmat xodimlari uchun ariza, shartnoma, ishonchnoma kabi hujjatlarning amaldagi qonunchilikka mos namunalarini taqdim etish

T/r	Platforma / kanal	Elektron havola	Nima maqsadda ishlab chiqilgan
5	**Regulation.gov.uz** *Loyihalar muhokamasi portali*	regulation.gov.uz QR-kodni skanerlang	normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish va takliflarni yig‘ish
6	**Huquqiyportal.uz** *Milliy huquqiy portal*	huquqiyportal.uz QR-kodni skanerlang	huquqiy ma’lumotnomalar, sharhlar va tushuntirishlarni bir joyda jamlash
7	**Adliya TV** *Internet platformasi*	youtube.com/@adliyatv QR-kodni skanerlang	qonunchilikni sodda tilda videorolik, podkast va sharhlar orqali tushuntirish
8	**“Huquq maktabi”** *Mobil ilova*	Google Play, App Store QR-kodni skanerlang 80 000 dan ortiq foydalanuvchi	video darslar, testlar va sertifikat orqali huquqiy bilimlarni bosqichma-bosqich o‘rgatish
9	**“Adliya Plus”** *Mobil ilova*	my.adliya.uz QR-kodni skanerlang 200 000 dan ortiq foydalanuvchi	adliya xizmatlari, huquqiy materiallar va yo‘riqnomalarni bitta ilovada jamlash
10	**Bola huquqlari portali** *Bolalar uchun huquqiy portal*	bolahuquqlari.uz QR-kodni skanerlang	bolalarga huquq va burchlarini sodda tilda, o‘yinlar, huquqiy darslar, lug‘at, video va audio materiallar orqali o‘rgatish; xavfsizlik, ta’lim va yo‘l harakati qoidalari bo‘yicha boshlang‘ich ko‘nikmalar berish
11	**Adliay vazirligi rasmiy veb-sayti** *gov.uz tizimida*	gov.uz/oz/adliya QR-kodni skanerlang	vazirlik faoliyati haqida birlamchi rasmiy axborot olish, hujjatlar va murojaat yuborish
Respublika darajasidagi ijtimoiy tarmoq sahifalari			
T/r	**Platforma / kanal**	**Elektron havola**	**Nima maqsadda ishlab chiqilgan**
1	**“Huquqiy axborot”** *Telegram kanali* *(o‘zbek tilida)*	t.me/huquqiyaxborot QR-kodni skanerlang 220 000 ortiq obunachi	qonunchilikdagi yangiliklarni qisqa sharh va infografika shaklida, lex.uz havolasi bilan har kuni tezkor yetkazish *(o‘zbek tilida)*

T/r	Platforma / kanal	Elektron havola	Nima maqsadda ishlab chiqilgan
2	**“Правовая информация”** *Telegram kanali (rus tilida)*	t.me/pravoinf QR-kodni skanerlang 33 000 ortiq obunachi	qonunchilikdagi yangiliklarni qisqa sharh va infografika shaklida, lex.uz havolasi bilan har kuni tezkor yetkazish *(rus tilida)*
3	**“Legal Info”** *Telegram kanali (ingliz tilida)*	t.me/leginf QR-kodni skanerlang 11 000 ortiq obunachi	qonunchilikdagi yangiliklarni qisqa sharh va infografika shaklida, lex.uz havolasi bilan har kuni tezkor yetkazish *(ingliz tilida)*
4	**“Huqıqıy málimleme”** *Telegram kanali (qoraqalpoq tilida)*	t.me/huqiqiymalimleme QR-kodni skanerlang 6 500 ortiq obunachi	qonunchilikdagi yangiliklarni qisqa sharh va infografika shaklida, lex.uz havolasi bilan har kuni tezkor yetkazish *(qoraqalpoq tilida)*
5	**“Adliya yangiliklari”** *Telegram kanali*	t.me/adliyayangiliklari QR-kodni skanerlang 17 000 yaqin obunachi	Adliya vazirligi faoliyati, yangi xizmatlar va tadbirlar haqida xabar berish
6	**“Intellektual mulk yangiliklari”** *Telegram kanali*	t.me/adliyaimd QR-kodni skanerlang 3 500 ortiq obunachi	mualliflik huquqi, tovar belgilari va kontrafaktga qarshi kurash bo‘yicha axborot berish
7	**“Advice.uz huquqiy axborot kanali”** *Telegram kanali*	t.me/advice_uz QR-kodni skanerlang 24 000 ortiq obunachi	har kuni savol-javob, viktorina va videolar orqali amaliy huquqiy bilim berish
8	**Instagram** *@adliyanews*	instagram.com/adliyanews QR-kodni skanerlang	reels, karusel va Stories orqali huquqiy axborotni ko‘rgazmali va qisqa shaklda yetkazish
9	**Facebook sahifasi** *“Adliya vazirligi”*	facebook.com/minjustuz QR-kodni skanerlang	batafsil sharhlar, rasmiy bayonotlar va fotomateriallarni e’lon qilish

T/r	Platforma / kanal	Elektron havola	Nima maqsadda ishlab chiqilgan
10	**Facebook guruhi** *“Adliya bilan muloqot”*	https://www.facebook.com/groups/adliya/ QR-kodni skanerlang	aholi bilan ikki tomonlama muloqot: savol-javob va muhokamalar orqali fikr-mulohazalarni yig‘ish
11	**YouTube** *“Adliya vazirligi” kanali*	youtube.com/@Adliya QR-kodni skanerlang	tadbirlar, brifinglar va rasmiy video roliklarni joylashtirish
12	**YouTube** *“Adliya TV” kanali*	youtube.com/@adliyatv QR-kodni skanerlang	mutaxassislarning video ma’ruza va podkastlari orqali murakkab mavzularni chuqur tushuntirish
13	**YouTube** *“Huquq maktabi” kanali*	youtube.com/@HuquqMaktabi QR-kodni skanerlang	video darslar va qisqa roliklar orqali huquqiy ta’lim berish
14	**“Davlat xizmatlari yangiliklari”** *Telegram kanali*	t.me/davxizmat QR-kodni skanerlang 71 000 ortiq obunachi	davlat xizmatlari, ularni olish tartibi, yangi xizmatlar va 1148 ishonch telefoniga kelgan savollarga javoblar haqida tushuntirish berish
15	**Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti**	t.me/Training_institute_for_lawyers uzmarkaz.uz QR-kodni skanerlang	adliya xodimlari, davlat organlari va tashkilotlari xodimlari, yuristlar, advokatlar, notariuslar va mediatorlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish o‘quv kurslari, seminar va treninglar haqida axborot berish
16	**“Intellektual mulk markazi”** *Davlat muassasasi*	ipcenter.uz QR-kodni skanerlang	ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, tovar belgisi va boshqa intellektual mulk obyektlariga talabnomalarni ekspertizadan o‘tkazish va ro‘yxatga olish
17	**“O‘zarxiv” agentligi**	https://t.me/uzarxivs QR-kodni skanerlang	davlat arxiv ishini boshqarish, arxiv hujjatlarini saqlash va ulardan foydalanish, arxiv ma’lumotnomalarini berish

T/r	Platforma / kanal	Elektron havola	Nima maqsadda ishlab chiqilgan
18	**X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi**	t.me/sudexuz sudex.uz QR-kodni skanerlang 1 100 otiq obunachi	sud ekspertizalarini o‘tkazish, ekspertiza turlari, tartibi va markaz faoliyati haqida axborot berish
19	**To‘lovga qobiliyatsizlik ishlari agentligi**	gov.uz/oz/insolvency QR-kodni skanerlang	to‘lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) jarayonlarini tartibga solish, moliyaviy og‘ir ahvoldagi biznesni sog‘lomlashtirishga ko‘maklashish
20	**Toshkent davlat yuridik universiteti**	t.me/tsulofficial tsul.uz QR-kodni skanerlang 21 000 otiq obunachi	yuridik kadrlarni tayyorlash, qabul, o‘quv jarayoni, ilmiy faoliyat, yuridik klinika va “Street Law” dasturi haqida axborot berish
21	**“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi**	t.me/adolat_nashrlari adolatmarkazi.uz QR-kodni skanerlang	huquqiy adabiyotlar, kodekslar va qonunlar to‘plamlarini so‘nggi o‘zgartishlar bilan nashr etish va tarqatish
22	**Adliya organlarida AKTni rivojlantirish markazi**	ict.adliya.uz QR-kodni skanerlang	adliya sohasidagi axborot tizimlari va elektron xizmatlarni *(e-notarius, litsenziyalash, intellektual mulk platformasi)* ishlab chiqish va qo‘llab-quvvatlash

Hududiy adliya organlarining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini yuritishning asosiy maqsadi – hudud aholisiga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni amaliy misollar bilan yetkazishdir.

Kontent asosan hududiy yangiliklar, “Rahbar va yoshlar” uchrashuvlari, sayyor qabullar, targ‘ibot tadbirlari, respublika kanallaridagi materiallarning hududga moslashtirilgan shakllari va boshqalardan iborat bo‘lib, huquqiy axborotni mahalla va tumanlar kesimida tegishli maqsadli auditoriyaga yetkazish hisoblanadi.

3-jadval. Hududiy adliya boshqarmalarining telegram kanallari

T/r	Platforma / kanal	Elektron havola	Asosiy maqsadi
1	**Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi**	t.me/KRAdillikMinistrligi QR-kodni skanerlang	Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisiga huquqiy axborotni mahalliy misollar bilan yetkazish
2	**Toshkent shahar adliya boshqarmasi**	t.me/toshadliya QR-kodni skanerlang	Toshkent shahri aholisiga huquqiy axborotni mahalliy misollar bilan yetkazish
3	**Andijon viloyat adliya boshqarmasi**	t.me/adliyaboshqarmasi QR-kodni skanerlang	Andijon viloyati aholisiga huquqiy axborotni mahalliy misollar bilan yetkazish
4	**Buxoro viloyat adliya boshqarmasi** *Telegram kanali*	t.me/buxoro_adliya_uzb QR-kodni skanerlang	Buxoro viloyati aholisiga huquqiy axborotni mahalliy misollar bilan yetkazish
5	**Jizzax viloyat adliya boshqarmasi**	t.me/jizzax_adliya_boshqarmasi QR-kodni skanerlang	Jizzax viloyati aholisiga huquqiy axborotni mahalliy misollar bilan yetkazish
6	**Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi**	t.me/qashqadaryoviloyatadliya QR-kodni skanerlang	Qashqadaryo viloyati aholisiga huquqiy axborotni mahalliy misollar bilan yetkazish
7	**Navoiy viloyat adliya boshqarmasi**	t.me/Navoiy_adliya QR-kodni skanerlang	Navoiy viloyati aholisiga huquqiy axborotni mahalliy misollar bilan yetkazish
8	**Namangan viloyat adliya boshqarmasi**	t.me/namanganadliya QR-kodni skanerlang	Namangan viloyati aholisiga huquqiy axborotni mahalliy misollar bilan yetkazish
9	**Samarqand viloyat adliya boshqarmasi**	t.me/qonun_va_huquq QR-kodni skanerlang	Samarqand viloyati aholisiga huquqiy axborotni mahalliy misollar bilan yetkazish

T/r	Platforma / kanal	Elektron havola	Asosiy maqsadi
10	**Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi**	t.me/huquqiytargibot QR-kodni skanerlang	Sirdaryo viloyati aholisiga huquqiy axborotni mahalliy misollar bilan yetkazish
11	**Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi**	t.me/surxondaryoadliya QR-kodni skanerlang	Surxondaryo viloyati aholisiga huquqiy axborotni mahalliy misollar bilan yetkazish
12	**Toshkent viloyat adliya boshqarmasi**	t.me/toshviladliya QR-kodni skanerlang	Toshkent viloyati aholisiga huquqiy axborotni mahalliy misollar bilan yetkazish
13	**Farg‘ona viloyat adliya boshqarmasi**	t.me/adliya_fargona QR-kodni skanerlang	Farg‘ona viloyati aholisiga huquqiy axborotni mahalliy misollar bilan yetkazish
14	**Xorazm viloyat adliya boshqarmasi**	t.me/xorazmadliya QR-kodni skanerlang	Xorazm viloyati aholisiga huquqiy axborotni mahalliy misollar bilan yetkazish

Izoh: *obunachi va foydalanuvchilar soni, qo‘llanmadagi boshqa ma’lumotlar 2026-yil sentabr holatiga ko‘ra shakllantirilgan. Advice.uz “Madad” NNT tomonidan yuritiladi. Ayrim ikonkalar shartli belgi bo‘lib, platformalarning rasmiy logotiplari emas.*

Adliya organlarining **11 ta** platformasi, respublika darajasidagi **22 ta** hamda hududiy darajadagi **14 ta** ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini yagona tizim asosida yuritilishi – huquqiy axborotni aholining barcha qatlamlariga manzilli yetkazilishini ta’minlaydi.

2.3. Vazirliklar hamda idoralarning sohadagi vakolatlari va majburiyatlari

“Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasida vazirliklar hamda idoralarning mazkur sohadagi vakolatlari belgilangan. Ushbu vakolatlar huquqiy axborotni tarqatish, hujjatlarni tegishli bo‘linmalarga yetkazish, ularning mazmuni va qo‘llanilish tartibini tushuntirish, huquqiy axborot fondlarini shakllantirish hamda so‘rovlarga ko‘ra axborot taqdim etish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Mazkur vakolatlarni tushunish va amaliy faoliyatda qo‘llashni osonlashtirish uchun ular yo‘nalishlar bo‘yicha shartli ravishda guruhlarga ajratilgan holda foydalanuvchiga taqdim etilmoqda.

4-jadval. Vazirliklar hamda idoralarning huquqiy axborot sohasidagi vakolatlari

T/r	Vakolat yo‘nalishi	Vakolatning mazmuni

T/r	Vakolat yo‘nalishi	Vakolatning mazmuni
1	**Huquqiy axborotni tarqatish**	huquqiy axborotni belgilangan tartibda, shu jumladan normativ-huquqiy hujjatlarni yuborish, e’lon qilish hamda rasmiy veb-saytga joylashtirish orqali tarqatadi
2	**Hujjatlarni Adliya vazirligiga yuborish**	o‘zi qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlar matnlarini, zarur hollarda ularga doir axborot-tahliliy materiallar bilan birga yuborish va rasmiy e’lon qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga yo‘llaydi
3	**Hujjatlarni tarkibiy va hududiy bo‘linmalarga yetkazish**	markaziy devonga kelib tushgan normativ-huquqiy hujjatlar matnlarining tarkibiy va hududiy bo‘linmalarga o‘z vaqtida yetkazilishini ta’minlaydi
4	**Nazorat qilish**	huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risidagi qonunchilikning o‘z tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi
5	**Mazmun-mohiyatini yetkazish**	normativ-huquqiy hujjatlar normalarining mohiyati va ahamiyatini tushuntirish, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish hamda qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan ishlarni tashkil etadi
6	**Huquqiy axborot fondlarini shakllantirish**	o‘z faoliyati sohasiga oid huquqiy axborot fondlarini shakllantiradi
7	**Normativ-huquqiy hujjatlar hisobini yuritish**	normativ-huquqiy hujjatlarning tizimlashtirilgan hisobini belgilangan tartibda yuritadi
8	**So‘rovlar bo‘yicha huquqiy axborot taqdim etish**	jismoniy va yuridik shaxslarning so‘rovlariga ko‘ra o‘z faoliyati sohasiga doir huquqiy axborotni taqdim etadi
9	**Hujjatlarni qo‘llash tartibini tushuntirish**	normativ-huquqiy hujjatlarning qo‘llanilish tartibi yuzasidan belgilangan tartibda tushuntirishlar beradi
10	**Boshqa vakolatlarni amalga oshirish**	qonunchilikka muvofiq ushbu sohada boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin

2.4. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash sohasidagi vakolatlari

“Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasiga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘z vakolatlari doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

5-jadval. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy axborot sohasidagi vakolatlari

T/r	Vakolat yo‘nalishi	Qisqacha mazmuni
1	**Huquqiy axborotni tarqatish**	hujjatlarni yuborish, e’lon qilish va rasmiy veb-saytga joylashtirish orqali huquqiy axborotni tarqatadi
2	**Qarorlarni Adliya vazirligiga yuborish**	o‘zi qabul qilgan normativ-huquqiy xususiyatdagi qarorlarni, zarur hollarda axborot-tahliliy materiallar bilan birga, hududiy adliya organlari orqali Adliya vazirligiga yuboradi

T/r	Vakolat yo‘nalishi	Qisqacha mazmuni
3	**Hujjatlarni bo‘linmalar va mahallalarga yetkazish**	kelib tushgan normativ-huquqiy hujjatlar matnlarini tarkibiy va hududiy bo‘linmalari hamda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga o‘z vaqtida yetkazadi
4	**Huquqiy tushuntirish ishlarini tashkil etish**	hujjatlar mohiyati va ahamiyatini tushuntirish, huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish hamda qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan ishlarni tashkil etadi
5	**Huquqiy axborot fondlarini shakllantirish**	huquqiy axborot materiallarini jamlab, ularning fondini shakllantiradi
6	**Hujjatlar hisobini yuritish**	normativ-huquqiy hujjatlarni belgilangan tartibda tizimlashtirib, hisobini yuritadi
7	**So‘rovlar bo‘yicha axborot berish**	fuqarolar va yuridik shaxslarning so‘rovlariga ko‘ra huquqiy axborot taqdim etadi
8	**Hujjatlarni qo‘llash tartibini tushuntirish**	normativ-huquqiy hujjatlarni amaliyotda qo‘llash yuzasidan belgilangan tartibda tushuntirish beradi
9	**Boshqa vakolatlarni amalga oshirish**	qonunchilikka muvofiq ushbu sohada boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin

Mahalliy davlat hokimiyati organlari huquqiy axborotni o‘z vaqtida, to‘liq va aholiga tushunarli shaklda tarqatish tizimini samarali yo‘lga qo‘yishi lozim.

Bunda normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy veb-saytlarda muntazam e’lon qilish, ularni hududiy bo‘linmalar hamda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga tezkor yetkazish, hujjatlar mazmunini sodda va amaliy shaklda tushuntirishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, huquqiy axborot fondlari va hujjatlarning tizimlashtirilgan hisobini yuritish, jismoniy va yuridik shaxslarning so‘rovlariga belgilangan tartibda javob berish hamda mazkur yo‘nalishdagi ishlar ustidan doimiy nazoratni yo‘lga qo‘yish kerak.

2.5. Axborot-kutubxona muassasalarining ishtiroki

“Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi mazmunidan kelib chiqib, axborot-kutubxona muassasalarida amalga oshiriladigan ishlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

6-jadval. Axborot-kutubxona muassasalarining huquqiy axborotni tarqatishdagi ishtiroki

T/r	Vakolat yo‘nalishi	Amalga oshiriladigan ishlar
1	**Huquqiy axborot fondini shakllantirish**	muassasa faoliyati yo‘nalishiga oid huquqiy hujjatlar va materiallarni yig‘ish, tartibga solish hamda fondni yangilab borish
2	**Fonddan foydalanishni ta’minlash**	foydalanuvchilarga huquqiy axborot fondi bilan tanishish, kerakli materiallarni izlash va ulardan foydalanish uchun qulay sharoit yaratish

T/r	Vakolat yo‘nalishi	Amalga oshiriladigan ishlar
3	**So‘rovlar bo‘yicha axborot taqdim etish**	foydalanuvchilarning so‘rovlariga mos huquqiy axborotni topish va taqdim etish, tegishli manbalarni ko‘rsatish
4	**Boshqa shakllarda ishtirok etish**	qonunchilikka muvofiq huquqiy axborotni tarqatishning boshqa shakllarida ham ishtirok etish mumkin. *Masalan, huquqiy adabiyotlar ko‘rgazmalari va axborot tadbirlarini tashkil etish*

Axborot-kutubxona muassasalarida huquqiy axborot fondlarini muntazam yangilab borish, ulardan foydalanish uchun qulay sharoit yaratish hamda foydalanuvchilarning so‘rovlariga tezkor va to‘liq javob berish tizimini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu borada, adliya organlari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

2.6. Ta’lim muassasalarining ishtiroki

“Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasiga muvofiq, ta’lim muassasalarining ishtirokini quyidagicha ifodalash mumkin:

7-jadval. Ta’lim muassasalarining huquqiy axborotni tarqatishdagi ishtiroki

T/r	Mas’ul tashkilot	Amalga oshiriladigan ishlar
1	**Ta’lim va ilm-fan vazirligi hamda tarkibida ta’lim tashkilotlari bo‘lgan boshqa vazirliklar va idoralar**	tegishli maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalarini, shuningdek kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo‘yicha ta’lim tashkilotlarini huquqiy axborot bilan ta’minlaydi
2	**Ta’lim muassasalari**	o‘z faoliyati yo‘nalishiga oid huquqiy axborot fondlarini shakllantiradi
3	**Ta’lim muassasalari**	ta’lim oluvchilarning huquqiy axborot fondidan foydalanishini ta’minlaydi
4	**Ta’lim muassasalari**	ta’lim oluvchilarning so‘rovlariga ko‘ra huquqiy axborotni taqdim etadi

Ta’lim muassasalari huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlashda qonunchilikka muvofiq boshqa shakllarda ham ishtirok etishi mumkin.

Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlashda ta’lim muassasalari faoliyat yo‘nalishiga oid huquqiy axborot fondlarini muntazam shakllantirish va yangilab borish, ta’lim oluvchilar uchun ulardan erkin foydalanish imkoniyatini yaratish hamda ularning so‘rovlariga tezkor va tushunarli shaklda javob berish tizimini yo‘lga qo‘yishi lozim.


Bunda, huquqiy axborotni ta’lim oluvchilarning yoshi, bilim darajasi va ehtiyojlariga mos usullarda yetkazishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, hozirgi kunda Adliya vazirligi tomonidan **“Huquq maktabi”**, **“Adliya Plus”** mobil ilovalari, **bolahuquqlari.uz portali** hamda You Tubedagi **“Adliya TV”** sahifalarida bolalarning yoshiga mos bo‘lgan huquqiy materiallar tayyorlanib, doimiy ravishda yoritib borilmoqda.

Ta’lim muassasalari, jumladan umumta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim muassasalari yuqorida qayd etilgan platformalarga joylangan materiallardan unumli foydalangan holda bolalarga yoshiga mos bo‘lgan huquqiy bilimni innovatsion usulda berib borishi maqsadga muvifiq.

Shuningdek, yoshlarning huquq sohasiga qiziqishini oshirish maqsadida tuman (shahar) adliya bo‘limlari bilan hamkorlikda **“Ochiq eshiklar kuni”** tadbirlarini muntazam tashkil etib borish lozim.

Bundan tashqari, **“Huquq maktabi”** va **“Adliya Plus”** kabi ilovalar fuqarolarning huquqiy bilimlarini mustaqil oshirish, davlat xizmatlaridan foydalanish hamda huquqiy maslahat olish imkonini beradi.



2.7. Mahalla fuqarolar yig‘inlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolarning ishtiroki

Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlashda mahalla fuqarolar yig‘inlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar quyidagicha ishtirok etishi mumkin.

8-jadval. Mahalla fuqarolar yig‘inlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolarning ishtiroki

T/r	Mas’ul tashkilot	Moddada belgilangan vazifa yoki ishtirok shakli
1	**Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari**	huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlashda ishtirok etadi

T/r	Mas’ul tashkilot	Moddada belgilangan vazifa yoki ishtirok shakli
2	**Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari**	aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ishtirok etadi
3	**Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari**	o‘z faoliyatiga oid huquqiy axborot fondlarini shakllantiradi
4	**Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari**	fuqarolarning huquqiy axborot fondidan foydalanishini ta’minlaydi
5	**Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari**	qonunchilikka muvofiq huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlashning boshqa shakllarida ham ishtirok etishi mumkin
6	**Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar**	huquqiy axborotni tarqatuvchi hamda undan foydalanishni ta’minlovchi organlar va tashkilotlarga ko‘maklashish, zarur yordam ko‘rsatish orqali huquqiy axborotni tarqatishda ishtirok etishi mumkin
7	**Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar**	huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risidagi qonunchilik ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi mumkin

Izoh: *beshinchi, oltinchi va yettinchi qatorlarda* ***ishtirok etish yoki jamoatchilik nazoratini amalga oshirish*** *imkoniyati nazarda tutilgan.*

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib, huquqiy axborotdan foydalanish uchun elektron platformalar yaratilganini inobatga olib, mahalla fuqarolar yig‘inlari joylarda huquqiy axborotni tarqatishda ushbu imkoniyatlardan foydalanishi lozim.

Masalan, mahallalarda tashkil etilgan **Telegram guruhlari** imkoniyatlaridan samarali foydalanib, aholi bilan muntazam muloqotni yo‘lga qo‘yish, adliya organlari bilan hamkorlikda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish hamda ularni qonunchilikdagi yangiliklardan tezkor xabardor qilib borish tizimini yaratish zarur.

Huquqiy axborotni mahalla darajasida manzilli yetkazish mahalla yettiligi a’zolarining funksional vazifalari va ular bilan ishlovchi maqsadli guruhlardan kelib chiqib tashkil etiladi. Hokim yordamchisi – **tadbirkorlarga,** xotin-qizlar faoli – **ayollarga,** yoshlar yetakchisi – **yoshlarga,** soliq inspektori – soliq to‘lovchilarga, ijtimoiy xodim – ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar va oilalarga, mahalla raisi – nuroniylar hamda pensiya yoshidagi fuqarolarga huquqiy axborotni yetkazishni ta’minlaydi. **Profilaktika inspektori** esa **jinoyatchilik, firibgarlik va kiberjinoyatlardan himoyalanish** bo‘yicha profilaktik tushuntirish ishlarini olib boradi.

9-jadval. Mahalla yettiligi tomonidan huquqiy axborotni manzilli tarqatishning namunaviy shakli

Mahalla yettiligi a’zosi	Ma’lumot manbai	Tarqatiladigan ma’lumot	Kimlarga yetkaziladi
Mahalla raisi	adliya organlari va mahalliy hokimliklarning	pensiya, imtiyozlar, meros, uy-joy va kommunal masalalar	nuroniylar, pensionerlar va

Mahalla yettiligi a’zosi	Ma’lumot manbai	Tarqatiladigan ma’lumot	Kimlarga yetkaziladi
	rasmiy manbalari		mahalla aholisi
Hokim yordamchisi	adliya organlari, Savdo-sanoat palatasi, banklar va boshqalar	tadbirkorlik, kredit, subsidiya, litsenziya va davlat xizmatlari	tadbirkorlar, o‘zini-o‘zi band qilganlar va ishsiz fuqarolar
Yoshlar yetakchisi	adliya organlari va Yoshlar ishlari agentligi	ta’lim, bandlik, imtiyozli kredit, stipendiya va yoshlar huquqlari	yoshlar, talabalar va o‘quvchilar
Xotin-qizlar faoli	adliya organlari hamda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi	ayollar huquqlari, ijtimoiy imtiyozlar, bandlik va zo‘ravonlikdan himoyalanish	mahalladagi xotin-qizlar
Ijtimoiy xodim	adliya organlari va Ijtimoiy himoya milliy agentligining rasmiy manbalari	nafaqa, moddiy yordam, reabilitatsiya, ijtimoiy xizmat va kafolatlar	nogironligi bo‘lgan shaxslar, kam ta’minlangan va og‘ir ijtimoiy vaziyatdagi oilalar
Profilaktika inspektori	adliya hamda ichki ishlar organlari	huquqbuzarlik, firibgarlik, kiberjinoyat va zo‘ravonlikning oldini olish	mahalla aholisi, ayniqsa xavf guruhidagi shaxslar
Soliq inspektori	adliya organlari va Soliq qo‘mitasining rasmiy sahifalari	soliq majburiyatlari, imtiyozlar, deklaratsiya va o‘zini-o‘zi band qilish tartibi	tadbirkorlar, mulkdorlar va soliq to‘lovchi fuqarolar

Izoh: *mazkur jadval mahalla yettiligi a’zolarining axborot manbalari, tarqatadigan huquqiy ma’lumotlari va maqsadli auditoriyasi xodimlarning funksional vazifalaridan kelib chiqib shartli ravishda belgilandi.*

Umumiy qoida.

Mahalla yettiligining barcha a’zolari adliya organlarining rasmiy sahifalariga obuna bo‘lib, joylashtirilgan axborotdan o‘z faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha aholiga manzilli yetkazish orqali fuqarolar bilan samarali hamkorlik o‘rnatishi va yakunda aholining huquqiy madaniyati oshishiga xizmat qilishi mumkin.

III BOB. HUQUQIY AXBOROTNI TARQATISH USULLARI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

3.1. Huquqiy axborotni tarqatish usullari

“Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunga asosan huquqiy axborotni tarqatish usullari quyidagilardan iborat:

10-jadval. Huquqiy axborotni tarqatish usullari

T/r	Tarqatish usuli	Qisqacha mazmuni
1	**Normativ-huquqiy hujjatlar matnlarini yuborish**	hujjat matnini hujjatni qabul qilgan organ tomonidan mas’ul tashkilotlarga yuborish va Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxat asosida tegishli tashkilotlarga jo‘natish
2	**Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy e’lon qilish**	hujjatni qonunchilikda belgilangan rasmiy manbalarda e’lon qilish, chop etish
3	**Normativ-huquqiy hujjatlarni norasmiy e’lon qilish**	hujjatni rasmiy bo‘lmagan manbalarda *(OAV, veb-sayt, sharh, to‘plamlar va h.k.)* e’lon qilish
4	**Huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish**	huquqiy axborotni aholiga yetkazish *(sharh, risola, plakat, uchrashuv, ma’ruza, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar)*
5	**Jismoniy va yuridik shaxslarga ularning so‘rovlariga ko‘ra huquqiy axborot taqdim etish**	jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatiga binoan ularga kerakli huquqiy axborotni berish

Quyida Qonunda belgilangan huquqiy axborotni tarqatish usullari alohida ko‘rib chiqilib, ularni amaliyotda qo‘llashda davlat organlari va tashkilotlarining ishtiroki sodda tarzda tushuntiriladi.

3.2. Normativ-huquqiy hujjatlar matnlarini yuborish yo‘li bilan tarqatish

Normativ-huquqiy hujjatlar matnlarini yuborish yo‘li bilan tarqatish – normativ-huquqiy hujjatlarning rasmiy matnlarini davlat organlari va tashkilotlariga qog‘oz yoki elektron shaklda bevosita yetkazish usuli hisoblanadi.

Bu jarayon ikki bosqichda amalga oshiriladi: avval hujjatni qabul qilgan organ uni belgilangan organlarga yuboradi *(11-jadval)*, so‘ngra Adliya vazirligi uni boshqa davlat organlari va tashkilotlariga tegishlicha tarqatadi.

11-jadval. Hujjatni qabul qilgan organ matnni yuboradigan tashkilotlar

Normativ-huquqiy hujjat turi	Hujjat matni yuboriladigan tashkilotlar				Muddat
	Oliy Majlis palatalari	Prezident Administratsiyasi	Vazirlar Mahkamasi	Adliya vazirligi	
Qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari	✓	—	✓	✓	Imzolangan kundan e’tiboran **1 kun** ichida
Oliy Majlis palatalarining	—	✓	✓	✓	

Normativ-huquqiy hujjat turi	Hujjat matni yuboriladigan tashkilotlar				Muddat
	Oliy Majlis palatalari	Prezident Administratsiyasi	Vazirlar Mahkamasi	Adliya vazirligi	
qarorlari					
Vazirlar Mahkamasining qarorlari	✓	✓	—	✓	
Vazirliklar va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari	—	—	—	✓	

Izoh: *matnlar va zarur bo‘lgan taqdirda ularga doir axborot-tahliliy materiallar qog‘ozda va elektron shaklda yuboriladi.* ***“Adliya vazirligi”*** *ustunidan ko‘rinib turibdiki, barcha normativ-huquqiy hujjatlar Adliya vazirligiga taqdim etilishi lozim.*

3.3. Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy e’lon qilish yo‘li bilan tarqatish

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasida har bir normativ-huquqiy hujjat **rasmiy e’lon** qilinadigan manbalar belgilab berilgan. Quyida ushbu modda mazmuni tushunarli shaklda jadval ko‘rinishida taqdim etiladi:

12-jadval. Normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy e’lon qilinadigan manbalar

Normativ-huquqiy hujjat turi	Rasmiy e’lon qilinadigan manbalar
O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, Oliy Majlis palatalarining qarorlari, Prezident farmonlari va qarorlari	“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi”, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik to‘plami”, “Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetalari, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”
Vazirlar Mahkamasining qarorlari	“O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarining to‘plami”, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik to‘plami”, “Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetalari, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”
Vazirliklar va idoralarning normativ-huquqiy hujjatlari	“O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik to‘plami”, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”, shuningdek vazirlik va idoralarning rasmiy nashrlari
Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari	“O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”, “E-qaror” elektron tizimi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy nashrlari

Normativ-huquqiy hujjatlarning rasmiy e’lon qilinishining ahamiyati katta. Qonunchilikka ko‘ra normativ-huquqiy hujjatlar, agar hujjatlarning o‘zida kechroq muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, **rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran** kuchga kiradi.

Belgilangan tartibda rasman e’lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjat huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi hamda jismoniy va yuridik shaxslar zimmasiga majburiyat yuklash uchun asos bo‘lmaydi.

3.4. Normativ-huquqiy hujjatlarni norasmiy e’lon qilish

Normativ-huquqiy hujjatlarni qonunchilikda belgilangan rasmiy manbalardan boshqa manbalarda, jumladan davriy nashrlar, veb-saytlar va elektron axborot tizimlarida, shuningdek risola, to‘plam va sharhlar shaklida e’lon qilish **norasmiy e’lon qilish** hisoblanadi. Bunda quyidagi talablarga rioya etilishi lozim:

13-jadval. Normativ-huquqiy hujjatlarni norasmiy e’lon qilishga qo‘yiladigan talablar

Normativ-huquqiy hujjatni norasmiy e’lon qilinishi	E’lon qilishga qo‘yilgan talablar
Kodekslar, qonunchilik hujjatlari to‘plamlari va qonunchilikning elektron ma’lumot tizimlari	nashr qilinayotgan (realizatsiya qilinayotgan) sanadagi nazorat holatiga keltirilgan bo‘lishi lozim
Hujjatlarning boshqa tillardagi tarjimalari	norasmiy tarjima ekanligi haqidagi belgiga ega bo‘lishi lozim
Normativ-huquqiy hujjat matnining elektron shakli	hujjatni qabul qilgan organning rasmiy veb-saytiga belgilangan tartibda joylashtiriladi
Rasmiy veb-saytdagi huquqiy axborotning ishonchliligi	ishonchli bo‘lishi va OAVrida e’lon qilinadigan axborot bilan bir xil kuchga ega bo‘lishi lozim

Davlat organlari va tashkilotlari *(mazkur yo‘nalishga mas’ul xodimlarga)* o‘z faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar ro‘yxatini shakllantirish, ularning rasmiy veb-saytlarda joylashtirilganligini tekshirish hamda mavjud ma’lumotlarni muntazam yangilab borishi maqsadga muvofiq.

3.5. Normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy targ‘ibot yo‘li bilan tarqatish

Huquqiy axborotni tarqatishning eng muhim va dolzarb yo‘nalishi huquqiy targ‘ibot hisoblanadi. Qonunchilikka asosan **barcha davlat organlari va tashkilotlari** o‘z faoliyati doirasida **huquqiy targ‘ibotni** doimiy ravishda amalga oshirib borishi lozim.

14-jadval. Huquqiy targ‘ibotni amalga oshiruvchi subyektlar

Subyekt	Huquqiy targ‘ibotdagi o‘rni
Barcha davlat organlari va tashkilotlari	Huquqiy targ‘ibotni amalga oshiradi (majburiy)
Xo‘jalik boshqaruvi organlari	Huquqiy targ‘ibotni amalga oshiradi (majburiy)
Nodavlat notijorat tashkilotlari	Huquqiy targ‘ibotni amalga oshirishi mumkin (ixtiyoriy)

Subyekt	Huquqiy targ‘ibotdagi o‘rni
Normativ-huquqiy hujjatni qabul qiluvchi va (yoki) ishlab chiquvchi organ	Hujjat qabul qilinganidan keyin bir hafta ichida huquqiy targ‘ibot bo‘yicha **chora-tadbirlar rejasini** ishlab chiqadi va tasdiqlaydi
Adliya vazirligi	Targ‘ibot ishlarini muvofiqlashtiradi

15-jadval. Huquqiy targ‘ibot usullari va ularni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar

Targ‘ibot usuli	Amaliy tavsiya
Konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, davra suhbatlari va muloqotlar o‘tkazish	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi PF – 160-son Farmonga ko‘ra, samaradorligi past tadbirlarni keskin kamaytirish belgilangan. Tadbir faqat aniq maqsadli guruh *(hujjat ijrochilari, muayyan qatlam)* bilan qisqa va amaliy shaklda o‘tkazilishi, uning mazmuni esa video yoki post ko‘rinishida ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirilishi maqsadga muvofiq
Ommaviy axborot vositalari orqali: teleko‘rsatuvlar, radioeshittirishlar, bosma va elektron OAVdagi maqolalar hamda huquqiy-axborot materiallari	**“Savol-javob”** va **“hayotiy vaziyat”** shaklidagi chiqishlarga, hujjatni ishlab chiqqan mas’ul xodimning tushuntirishlariga ustuvorlik berish lozim. **Keksa yoshdagi auditoriya** uchun **mahalliy telekanal va radiodan** foydalanish zarur
Sharhlar, risolalar, plakatlar, bukletlar va flayerlar tarqatish	bosma materiallarni auditoriya ko‘p bo‘ladigan joylarda *(davlat xizmatlari markazlari, mahalla, tibbiyot muassasalari)* tarqatish, ularga tegishli xizmat sahifasiga olib boruvchi QR-kod joylashtirish
Ijtimoiy reklamalar *(videolavhalar, infografikalar va boshqalar)* hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa usullar	ijtimoiy tarmoqlar, qisqa videolar, podkastlar va sun’iy intellektga asoslangan chat-botlardan foydalanish tavsiya etiladi

16-jadval. Amaliyotdagi muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar

Muammo	Taklif
Huquqiy targ‘ibot faqat adliya organlarining vazifasi deb qaraladi	har bir davlat organi va tashkilotida huquqiy targ‘ibot uchun mas’ul xodim yoki bo‘linmani belgilash, innovatsion targ‘ibot usullariga e’tibor berish
Targ‘ibot natijasi o‘tkazilgan tadbirlar soni bilan baholanadi	baholashni qamrov, ko‘rishlar soni va aholining fikr-mulohazasi kabi natija ko‘rsatkichlariga o‘tkazish
Nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki sust	NNTlarni davlat ijtimoiy buyurtmasi, grantlar va hamkorlik memorandumlari orqali jalb etish

Huquqiy targ‘ibot samaradorligi o‘tkazilgan tadbirlar soni bilan emas, balki huquqiy axborotning maqsadli auditoriyaga **qanchalik tushunarli** yetib borgani bilan belgilanishi lozim.

3.6. Jismoniy va yuridik shaxslarga ularning so‘rovlariga ko‘ra huquqiy axborot taqdim etish

Qonunning 20-moddasiga ko‘ra, jismoniy va yuridik shaxslar o‘z faoliyatiga taalluqli huquqiy axborotni taqdim etish to‘g‘risidagi so‘rov bilan davlat organlari va tashkilotlariga murojaat qilish huquqiga ega.

Huquqiy axborotni taqdim etish to‘g‘risidagi so‘rov u kelib tushgan kundan e’tiboran **o‘n besh kundan ko‘p bo‘lmagan** muddatda ko‘rib chiqilishi lozim.

17-jadval. So‘rovga ko‘ra huquqiy axborotni taqdim etish tartibi

Masala	Qonun talabi
Kim murojaat qiladi	jismoniy va yuridik shaxslar
Qayerga murojaat qilinadi	davlat organlari va tashkilotlariga
Nima so‘raladi	faoliyatga taalluqli huquqiy axborot
Ko‘rib chiqish muddati	so‘rov kelib tushgan kundan e’tiboran 15 kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda
Axborot allaqachon e’lon qilingan bo‘lsa	javobda rasmiy nashrning nomi, chiqarilish sanasi va soni yoki rasmiy veb-saytning elektron manziliga havola berilishi mumkin
Elektron shaklda taqdim etish	bepul
Qog‘ozda taqdim etish	tomonlarning kelishuviga ko‘ra haq olinishi mumkin
Rad etish	faqat asoslantirilgan holda

Yuqoridagilarga ko‘ra, davlat organlari va tashkilotlari huquqiy axborotga oid so‘rovlarga belgilangan muddatda to‘liq va tushunarli javob berishi, rasmiy manbaga aniq havola keltirishi lozim. So‘rov rad etilsa, huquqiy asosi ko‘rsatiladi. Axborotni elektron shaklda bepul taqdim etishga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq.

18-jadval. Huquqiy axborotni tarqatish usullari bo‘yicha qilinishi lozim bo‘lgan asosiy ishlar va tavsiyalar

Tarqatish usuli	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Talablar
Normativ-huquqiy hujjatlar matnlarini yuborish	hujjatlarni tegishli davlat organlari va tashkilotlarga qog‘oz yoki elektron shaklda yetkazish *(shu jumladan, Adliya vazirligiga yuborish)*	hujjatlarni belgilangan muddatda va to‘liq yuborish
Rasmiy e’lon qilish	normativ-huquqiy hujjatlarni qonunchilikda belgilangan rasmiy manbalarda e’lon qilish *(O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami, O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik to‘plami, Xalq so‘zi va Narodnoye slovo gazetalari, O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi*	rasmiy e’lon qilingan sana va hujjatning kuchga kirish muddatini aniq ko‘rsatish

Tarqatish usuli	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Talablar
	(lex.uz), E-qaror elektron tizimi va b.)	
Norasmiy e’lon qilish	hujjatlarni veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar, risola, to‘plam va sharhlar orqali tarqatish	hujjatning amaldagi tahriridan foydalanish va rasmiy manbaga havola berish
Huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish	qonunchilik mazmunini ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar, uchrashuv, OAV, videorolik, infografika, buklet va boshqa shakllarda tushuntirish	kontentni maqsadli auditoriyaga mos, sodda, qisqa va amaliy shaklda tayyorlash. Ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan unumli foydalanishga e’tibor qaratish
So‘rovga ko‘ra huquqiy axborot taqdim etish	jismoniy va yuridik shaxslarning so‘rovlariga huquqiy axborot taqdim etish	belgilangan muddatda tushunarli, to‘liq va asoslantirilgan javob berish

Izoh: *Huquqiy axborotni tarqatish usullari bo‘yicha amalga oshiriladigan asosiy ishlar va amaliy tavsiyalar yuqoridagi jadvalda keltirilgan.*

IV BOB. KONTENT PASPORTINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

4.1. Kontent pasportini shakllantirishning ahamiyati

Hozirda fuqarolarimizga huquqiy axborot olish uchun turli imkoniyatlar yaratilgan. Yuqorida qayd etilganidek, Adliya vazirligi tomonidan aholiga **huquqiy axborotni yetkazuvchi 11 ta internet platformasi hamda ijtimoiy tarmoqlarda 36 ta sahifa va kanal** ishga tushirilgan**.**

Birgina **Lex.uz** eng ommabop **5 ta saytdan** biri hisoblanib, uning kunlik auditoriyasi **40 ming**dan oshadi. **LexAIda sun'iy intellekt (SI)** texnologiyalari asosida huquqiy savollarga ko'maklashuvchi **chat-bot** ishga tushirilgan.

Qonunchilikdagi yangiliklar ko'pligi hamda aholining ayrim ijtimoiy qatlamlariga mo'ljallangan huquqiy axborot manbalari yetarli emasligi sababli fuqarolar huquqiy ma'lumotlarni ijtimoiy tarmoqlardagi **shaxsiy sahifalar, blogerlar kanallari va nodavlat axborot manbalaridan** olmoqda.

Huquqiy kontent shakli, taqdim etilish usuli, uslubi va maqsadli auditoriyaning yosh xususiyatlariga ko'ra tasniflanmaganligi sababli, **"barcha fuqarolarga bir xil"** mazmundagi huquqiy axborot yetkazilmoqda.

Kontent pasporti huquqiy kontentning maqsadli auditoriyasi, tayyorlanish maqsadi va **dolzarbligini** oldindan belgilash imkonini beradi.

Shunga ko'ra, **qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar** va **qonunchilik hujjatlari loyihalari** uchun kontent pasportini alohida shakllantirish tavsiya etiladi. Tavsiyani amaliyotda qo'llash hujjatni ishlab chiquvchi yoki tashabbuskor organga uning mazmuni qaysi auditoriyaga, qanday shakl va uslubda yetkazilishini oldindan belgilash imkonini beradi.

Kontent pasporti ikki turda shakllantiriladi:

- normativ-huquqiy hujjat loyihasi mazmunini yoritishga doir kontent pasporti;
- qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini yoritishga doir kontent pasporti.

4.2. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari mazmunini yoritishga doir kontent pasporti

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasi nazarda tutilgan. Muhokama Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish portali (regulation.gov.uz) orqali o'tkaziladi.

Portal quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- ❖ fuqarolar va tadbirkorlar loyihalar bo'yicha taklif bildiradi va so'rovnomalarda qatnashadi;
- ❖ davlat organlari takliflarni ko'rib chiqadi yoki asoslantirilgan holda rad etadi;
- ❖ loyihaning mumkin bo'lgan oqibatlari, korrupsiyaviy omillar, tadbirkorlik uchun ortiqcha cheklovlar va asossiz xarajatlar hujjat qabul qilinishidan oldin aniqlanadi.

Demak, Portaldagi muhokama – **hujjat qabul qilinishidan oldin aholi fikrini hisobga olishning asosiy vositasi hisoblanadi**. Biroq, bu vosita faqat aholi loyihadan xabardor bo‘lgandagina samara beradi.

4.3. Normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini yoritishga doir kontent pasporti

Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini tushuntirishga xizmat qiluvchi kontent pasporti belgilangan mezonlar asosida shakllantiriladi. U davlat organlari va tashkilotlari uchun tavsiyaviy xususiyatga ega bo‘lib, huquqiy axborotni aholining tegishli guruhlariga manzilli yetkazishga ko‘maklashadi.

19-jadval. Qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat mazmunini yoritishga doir kontent pasporti (namuna)

T/r	Mezon	Nima ko‘rsatiladi	Namuna (PQ – 319-son Qaror)
1	**Kontent nomi**	qisqa va tushunarli sarlavha (10 ta so‘zgacha)	Tibbiyot xodimlari uchun uzluksiz ta’limning yangi tizimi joriy etiladi
2	**Huquqiy asos**	hujjat turi, nomi, raqami, qabul qilingan sanasi va lex.uz havolasi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-sentabrdagi PQ – 319-son Qarori https://www.lex.uz/uz/docs/-8481120
3	**Kuchga kirish sanasi**	hujjat yoki uning alohida normalari kuchga kiradigan sana	2026-yil 10-sentabrdan alohida normasi 2027-yil 1-iyuldan
4	**Maqsad**	**kontent orqali erishiladigan natija:** xabardor qilish, tushuntirish, harakatga undash	tibbiyot xodimlarini yangi tartibdan xabardor qilish
5	**Maqsadli auditoriya**	yosh toifasi va aholi qatlami	18 yoshdan katta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari
6	**Asosiy mazmun**	nima o‘zgardi, kimga ta’sir qiladi, fuqaro nima qilishi kerak *(3 - 5 ta asosiy fikr)*	tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish uzluksiz ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi
7	**Shakli va uslubi**	kontent turi *(post, video, infografika, buklet va h.k.)* hamda uslubi *(rasmiy, publitsistik, so‘zlashuv)*	infografika
8	**Tarqatish kanallari va muddati**	Ijtimoiy tarmoqlar hamda yetkazish muddati *(bir martalik yoki doimiy)*	Telegram, Instagram, tibbiyot muassasalari guruhlari; bir martalik, 3 ish kuni ichida
9	**Mas’ul ijrochi**	kontentni tayyorlash va tarqatish uchun mas’ul organ *(xodim)*	Sog‘liqni saqlash vazirligi
10	**Kutilgan natija**	zaruriy ko‘rsatkichlar: qamrov, ko‘rishlar, izohlar, ulashishlar	ijtimoiy tarmoqlarda 46 ming marotaba ko‘rish *(tibbiyot xodimlarining umumiy sonining 10 foiz qismi)*; savollarga 48 soat ichida javob berish

Izoh: *pasport har bir kontent uchun alohida to‘ldiriladi. Huquqiy asosda albatta rasmiy manbaga (Lex.uz) havola beriladi. Kutilayotgan natija huquqiy kontentni ishlab chiqishdan ko‘zlangan maqsaddan kelib chiqib, ishlab chiquvchi tomonidan mustaqil belgilanadi.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-sentabrdagi “Tibbiyot va farmatsevtika sohasida uzluksiz kasbiy ta’lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ – 319-son Qarori misolida ***infografika shaklidagi kontentning pasporti*** *namunasi ishlab chiqildi.*

Kontent pasportidan foydalanish davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilayotgan huquqiy axborot materiallarining qonunchilikka muvofiq bo‘lishiga, auditoriyaga mos huquqiy materialning tayyorlanishiga hamda natijadorligini aniqlash va shu orqali huquqiy axborotning manzilli yetkazilishiga zamin yaratadi.

Kontent pasporti davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy axborotni tayyorlash va tarqatishga mas’ul xodimlari tomonidan shakllantiriladi va ularning alohida reyestri yuritiladi.

Reyestrni yuritishdan asosiy maqsad tayyorlanayotgan huquqiy kontentlarning natijadorligini baholash, ularni yaratish va tarqatishning samarali usullarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, reyestr orqali qaysi turdagi kontentlar fuqarolarning ko‘proq qiziqishi va faolligiga sabab bo‘layotgani tahlil qilinib, kelgusida ushbu yo‘nalishlarga ustuvor e’tibor qaratiladi.

Eng muhimi, kontent pasportlari reyestri huquqiy materiallarning amaldagi qonunchilikka muvofiq tayyorlanishini ta’minlash bilan birga, ularni barcha uchun bir xil shaklda emas, balki aholining turli qatlamlari ehtiyojlaridan kelib chiqib, maqsadli va manzilli ishlab chiqish hamda yetkazishga xizmat qiladi.

4.4. Amaliyotdagi muammolar tahlili

20-jadval. Loyihalarni muhokama qilish amaliyotidagi mavjud muammolar

Amaldagi holat	Mavjud muammo
Loyihalar portalga faqat **rasmiy-yuridik tilda** joylanadi	oddiy fuqaro loyiha mazmunini va o‘ziga qanday ta’sir qilishini tushunmaydi
Loyiha haqida **maqsadli auditoriyaga** alohida xabar berilmaydi	muhokamada asosan mutaxassislar ishtirok etadi, loyiha ta’sir qiladigan aholi qatlami chetda qoladi
Muhokama muddati haqida ma’lumot tarqatilmaydi	fuqaro loyihadan muddat tugaganidan keyin xabar topadi
Taklif yuborish usullari tushuntirilmaydi	fuqaro o‘z takliflarini qanday usulda yuborishni bilmaydi

Normativ-huquqiy hujjat loyihasiga doir kontent pasportining o‘ziga xos jihati – loyiha hali muhokama bosqichida ekanini aniq ko‘rsatishdir. Kontent pasportida loyihaning maqsadi, taklif etilayotgan asosiy o‘zgarishlar, ular ta’sir qiladigan aholi qatlamlari, muhokama muddati va regulation.gov.uz portalidagi loyiha havolasi aks ettiriladi. Bu manfaatdor shaxslarga loyiha mazmunini tushunish va o‘z takliflarini belgilangan muddatda bildirish imkonini beradi.

Kontent pasporti asosida shakllantirilgan loyihalarga oid huquqiy materiallar muhokamaga jalb etilganlar soni va ishtirokchilar ulushining oshishiga xizmat

qilishi mumkin. Buning natijasida loyiha bo‘yicha ko‘proq amaliy fikrlar olinadi, ularni ishlab chiqish jarayonida hisobga olish imkoniyati kengayadi. Ishtirokdagi o‘zgarishni muhokama ko‘rsatkichlarini avvalgi loyihalar bilan solishtirish orqali baholash maqsadga muvofiq.

Hozirda portalda muhokamaga joylashtirilayotgan normativ-huquqiy hujjat loyihalarida **“Loyiha pasporti”** shakllantiriladi hamda quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

21-jadval. Normativ-huquqiy hujjat loyihasining muhokama portalidagi pasporti (namuna)

Ko‘rsatkich	Mazmuni (namuna)
Muallif	O‘zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo‘mitasi
Nomi	Bosh reja va boshqa shaharsozlik hujjatlari amalga oshirilishi hamda ularga rioya etilishi ustidan monitoring o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida
Loyiha turi	Idoraviy qo‘shma qaror
Hujjat raqami	Yo‘q
Ushbu loyihani ishlab chiqish asosi	Prezident yoki Hukumat topshirig‘i
Soha	Uy-joy qonunchiligi. Kommunal xo‘jalik
Tartibga solish ta’sirini baholash	Yo‘q

Loyiha pasportidan farqli ravishda Kontent pasportida quyidagi mezonlar ustuvor ahamiyatga ega hisoblanadi:

22-jadval. Normativ-huquqiy hujjat loyihasi mazmunini yoritishga doir kontent pasporti

T/r	Mezon	Nima ko‘rsatiladi
1	**Kontent nomi**	qisqa sarlavha, unda hujjat loyiha ekanligi aniq ko‘rsatiladi
2	**Loyiha nomi va ishlab chiquvchi**	loyihaning to‘liq nomi, ishlab chiquvchi organ, regulation.gov.uz dagi ID raqami
3	**Muhokama muddati**	jamoatchilik muhokamasi boshlanishi va tugash sanasi
4	**Maqsad**	xabardor qilish, jamoatchilik fikrini o‘rganish, takliflar yig‘ish
5	**Maqsadli auditoriya**	loyiha ta’sir qiladigan aholi guruhlari
6	**Asosiy mazmun**	hozirgi tartib va taklif etilayotgan yangi tartib, kutilayotgan o‘zgarish
7	**Shakli va uslubi**	kontent turi va uslubi; **“loyiha”** belgisi majburiy
8	**Tarqatish kanallari va fikr bildirish usuli**	kanallar hamda taklif yuborish yo‘li *(regulation.gov.uz havolasi, so‘rovnoma, izohlar)*
9	**Mas’ul ijrochi**	kontentni tayyorlash va takliflarni umumlashtirish uchun mas’ul organ *(xodim)*

T/r	Mezon	Nima ko‘rsatiladi
10	**Kutilgan natija**	qamrov, so‘rovnoma ishtirokchilari va kelib tushgan takliflar soni; takliflar umumlashtirilib ishlab chiquvchiga yuboriladi

Izoh: *Loyiha bo‘yicha Kontent pasportida u hali Loyiha bosqichida ekanligi aniq ko‘rsatilishi shart. Fuqarolarda noto‘g‘ri tasavvur paydo bo‘lishining oldini olish lozim.*

4.5. Loyiha bo‘yicha kontent pasportining o‘ziga xos jihatlari

Loyiha bo‘yicha kontent pasporti qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat bo‘yicha ishlab chiqilgan huquqiy material pasportidan maqsadi bilan farq qiladi: u **xabardor qilishdan tashqari, aholini muhokamaga jalb etishga** qaratiladi.

23-jadval. Loyiha bo‘yicha Kontent pasportining o‘ziga xos jihatlari

Jihat	Mazmuni
“Loyiha” belgisi	kontentda hujjat hali qabul qilinmagani va kuchga kirmagani aniq ko‘rsatiladi; noto‘g‘ri tasavvurning oldi olinadi
Ta’sir guruhlarini aniqlash	Loyiha kimga ta’sir qilishi *(kasb, yosh, ijtimoiy qatlam)* oldindan belgilanadi va kontent aynan shu guruhga yo‘naltiriladi
Hozirgi va taklif etilayotgan tartib taqqoslamasi	**“Hozir qanday – Loyihada qanday”** shaklida sodda tushuntiriladi
Muhokama muddati	muhokama boshlanishi va tugash sanasi ko‘rsatiladi
Fikr bildirish yo‘li	**regulation.gov.uz** havolasi yoki **QR-kodi**, so‘rovnoma, izohlar orqali taklif berish usuli beriladi
Natija ko‘rsatkichi	qamrov bilan birga taklif va so‘rovnoma ishtirokchilari soni o‘lchanadi

4.6. Aholining muhokamadagi ishtirokini oshirish

Kontent pasporti aholi ishtirokini **“xabardorlik → tushunish → harakat”** zanjiri asosida oshiradi: kontent to‘g‘ri auditoriyaga yetadi, sodda tilda tushuntiriladi va taklif yuborish uchun aniq havola beriladi.

Normativ-huquqiy hujjat loyihalariga oid kontent pasportlari reyestri loyihani ishlab chiqqan davlat organi yoki tashkiloti tomonidan yuritiladi. Reyestr orqali loyihaning mazmuni va ahamiyati aholiga yetkazilib, fuqarolarning muhokamada faol ishtirok etishi hamda takliflar bildirishi uchun imkoniyat yaratiladi.

24-jadval. Muhokamada ishtirok ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	O‘lchash usuli
Loyiha bo‘yicha kontent qamrovi	ijtimoiy tarmoqlardagi ko‘rishlar soni
Portalga o‘tishlar soni	kontentdagi havola va QR-kod bo‘yicha o‘tishlar statistikasi
Takliflar va so‘rovnoma ishtirokchilari soni	regulation.gov.uz ma’lumotlari

Ko‘rsatkich	O‘lchash usuli
Ta’sir guruhi vakillari ulushi	taklif bergan shaxslar orasida loyiha ta’sir qiladigan guruh vakillarining ulushi

4.7. Kutilayotgan ijobiy natijalar

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari bo ‘yicha kontent pasportlarini yaratilishi natijasida quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

– **hujjat sifati oshadi** – loyiha ta’sir qiladigan aholi qatlamining real takliflari hisobga olinadi;

– **qabul qilingan hujjat ijrosi osonlashadi** – aholi hujjatni loyiha bosqichidayoq biladi, **“huquqiy targ‘ibot loyihadan boshlab”** tamoyili amalda qo‘llaniladi;

– **korrupsiyaviy omillar va ortiqcha cheklovlar erta aniqlanadi** – hujjat qabul qilinishidan oldin;

– **davlat organlariga ishonch ortadi** – fuqaro o‘z taklifi ko‘rib chiqilganini ko‘rishi mumkin bo‘ladi;

– **targ‘ibot resurslari tejaladi** – kontent aniq auditoriyaga yo‘naltirilgani uchun samarasiz tarqatishlar va ortiqcha targ‘ibot tadbirlari kamayadi.

Loyiha bo‘yicha ishlab chiqilgan huquqiy kontent pasporti regulation.gov.uz portalidagi muhokamani mutaxassislar doirasidan chiqarib, **loyiha ta’sir qiladigan aholi qatlamini** jalb etish vositasiga aylantiradi. Bu esa qabul qilinayotgan hujjatlarning sifati, tushunarliligi va aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini oshiradi.

V BOB. HUQUQIY KONTENTLARNI TARQATISH STANDARTI

5.1. Standartning maqsadi va qo‘llash doirasi

Huquqiy kontentlarni tarqatish standarti *(keyingi o‘rinlarda – Standart)* huquqiy kontentni **qaysi auditoriyaga, qanday shakl, uslub va kanal orqali, qancha muddatda** yetkazish hamda natijani qanday ko‘rsatkichlar bilan baholash bo‘yicha yagona qoidalarni belgilaydi.

Standartning maqsadi – davlat organlari va tashkilotlarida huquqiy axborotni tarqatish amaliyotini **bir xil mezonlar asosida** tashkil etish, tadbirlar soniga emas, balki **aholiga yetib borgan va tushunilgan** axborot hajmiga yo‘naltirilgan baholash tizimini joriy etishdan iborat.

Standart adliya organlari, vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ta’lim muassasalari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, fuqarolar, shu jumladan ijtimoiy tarmoq faollari va jurnalistlar tomonidan **huquqiy kontent tayyorlash va tarqatishda** qo‘llaniladi.

5.2. Huquqiy kontentni tarqatishga qo‘yiladigan umumiy talablar

25-jadval. Huquqiy kontentni tarqatishga qo‘yiladigan umumiy talablar

T/r	Talab	Mazmuni
1	**Ishonchlilik**	kontent normativ-huquqiy hujjatning amaldagi tahririga asoslanishi va rasmiy manbaga – Lex.uz saytiga havolani o‘z ichiga olishi lozim
2	**Manzillilik**	kontent tayyorlashdan oldin kontent pasporti to‘ldirilishi va maqsadli auditoriya aniq belgilanishi lozim *(IV bob)*
3	**Xalqchillik**	matn murakkab yuridik atamalarsiz, qisqa gaplar bilan, **“hayotiy vaziyat”** yoki **“savol-javob”** shaklida bayon etilishi lozim
4	**Amaliylik**	kontentda fuqaro nima qilishi, qayerga murojaat etishi, qanday hujjatlar talab qilinishi va qaysi muddatda harakat qilishi aniq ko‘rsatilishi lozim
5	**O‘z vaqtidalik**	kontent hujjat qabul qilingan yoki kuchga kirgan vaqtga yaqin muddatda tarqatilishi lozim
6	**Kanalga moslik**	material barcha platformalarga bir xil shaklda takroran joylashtirilmasdan, har bir platformaning xususiyatlariga moslashtirilishi lozim *(VI bob)*
7	**Til talabi**	kontent davlat tilida tayyorlanishi, zarur hollarda boshqa tillarda ham tarqatilishi lozim

5.3. Aholining yoshi va ayrim toifalari bo‘yicha huquqiy kontent shakli, uslubi va tarqatish kanallari

Huquqiy kontentni ishlab chiqishda ikki asosiy omilga e’tibor qaratish lozim.

Birinchidan, aholining yosh toifasi, ya’ni 7 yoshli bolaga murakkab tilli infografika ko‘rinishidagi huquqiy kontentni berib bo‘lmaydi. Bolalarga ko‘proq **multfilm, qiziqarli o‘yinlar** ko‘rinishida va bolalar tilida huquqiy axborotni yetkazish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, aholining ayrim toifalari *(kasbi, ijtimoiy holati)* hisobga olinadi: masalan, nuroniylarga ko‘proq hayotiy vaziyat bilan bog‘liq huquqiy kontentlarni berib borish tavsiya etiladi. Bunda, aholining yoshi va ayrim

toifalarining xususiyatlaridan kelib chiqib huquqiy axborot materiallarini tayyorlash va tarqatish muhim ahamiyatga ega.

Shu sababli, aholining ayrim toifalari va yosh guruhlari bilishi zarur bo‘lgan huquqiy ma’lumotlar ro‘yxati shakllantirildi *(uslubiy qo‘llanmaning 1 va 2-ilovalari).* Ushbu ro‘yxat davlat organlari va tashkilotlariga fuqarolarning yoshi hamda ijtimoiy holatini hisobga olgan holda qanday shaklda **huquqiy axborot tayyorlash va yetkazish lozimligini** belgilashda yordam beradi.

Huquqiy kontentning shakli, uslubi va tarqatish kanali maqsadli auditoriyadan kelib chiqib quyidagi standart asosida tanlanadi.

26-jadval. Aholi toifalari, yoshi bo‘yicha kontent shakli, uslubi va tarqatish kanallari

Auditoriya toifasi	Tavsiya etiladigan shakl	Uslub	Asosiy yetkazish kanali
Bolalar (4 - 13 yosh)	multfilm, o‘yin, krossvord, rasmli buklet, ertak	badiiy, so‘zlashuv	maktabgacha va maktab ta’lim muassasalari, “Huquq maktabi” mobil ilovasi, ota-onalar guruhlari
Yoshlar (14 - 30 yosh)	qisqa video (Reels), karusel, infografika, test, podkast	so‘zlashuv, publitsistik	Instagram, Telegram, YouTube, mahalla yoshlar yetakchilari, ta’lim muassasalari va boshqalar
Tadbirkorlar va o‘zini-o‘zi band qilgan fuqarolar	qisqa yo‘riqnoma, “qadamma-qadam” infografika, savol-javob	publitsistik, rasmiy	Telegram, Facebook, hokim yordamchisi, soliq inspektori, tadbirkorlar va mahallalar guruhlari
Xotin-qizlar va yosh oilalar	hayotiy vaziyatli video, infografika, buklet	so‘zlashuv	Instagram, Telegram, xotin-qizlar faoli, mahalla guruhlari
Keksa yoshdagi fuqarolar va pensionerlar *(55 yosh va undan katta)*	bosma buklet, qisqa audio/ovozli xabar, uchrashuvdagi og‘zaki tushuntirish	so‘zlashuv, sodda	mahalla guruhlari, Telegram *(ovozli xabar)*, televideniye va radio
Nogironligi bo‘lgan shaxslar va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar	subtitrli video, imo-ishora tili tarjimasi, katta shriftli buklet, audio	sodda	Telegram, ijtimoiy xodim, Inson markazlari
Davlat xizmatchilari va mutaxassislar	sharh, taqqoslash jadvali, videoma’ruza	rasmiy, ilmiy	rasmiy veb-sayt, Telegram guruhlari, YouTube

Izoh: *standart tavsiyaviy bo‘lib, har bir kontent uchun aniq shakl va kanal kontent pasportining 7 va 8-bandlarida belgilanadi.*

5.4. Kontent shakllariga qo‘yiladigan texnik talablar

27-jadval. Kontent shakllari bo‘yicha asosiy parametrlar

Kontent shakli	Tavsiya etiladigan hajm	Majburiy elementlar
Telegram post	1 000 belgigacha; sarlavha 10 ta so‘zgacha	huquqiy asos, Lex.uz havolasi, **“nima qilish kerak”** qismi
Qisqa video *(Reels, Shorts)*	30 - 60 soniya	subtitr, huquqiy asos ekranda, yakunda aniq xulosa
Infografika	hujjat hajmiga qarab 1 yoki 2 bet	huquqiy asos, tashkilot logotipi, sana

Kontent shakli	Tavsiya etiladigan hajm	Majburiy elementlar
Batafsil video / podkast	5 - 20 daqiqa	mavzular bo‘yicha vaqt belgilari, huquqiy asoslar ro‘yxati
Buklet / flayer	1 - 2 sahifa, yirik shrift	murojaat uchun telefon, QR-kod (Lex.uz yoki xizmat sahifasiga)
Veb-saytdagi sharh	cheklanmagan	hujjatning to‘liq nomi, raqami, sanasi, kuchga kirish muddati

5.5. Yagona maqsadli ko‘rsatkichlar

Standart barcha subyektlar uchun bir xil ko‘rsatkichlar tizimi asosida qo‘llaniladi. Huquqiy kontent tayyorlovchi va tarqatuvchi barcha subyektlar – **davlat organlari va tashkilotlari, mahalla yettiligi hamda fuqarolar** (shu jumladan, blogerlar va jurnalistlar) uchun bir xil tavsiyaviy talablar belgilanadi.

Yagona ko‘rsatkichning mazmuni sodda: huquqiy kontent **ishonchli** *(rasmiy manbaga tayanadi)*, **tezkor** *(o‘z vaqtida yetkaziladi)*, **muntazam** *(doimiy joylashtiriladi)*, **ochiq** *(savollarga javob beriladi)* va **hamma uchun qulay** bo‘lishi kerak.

28-jadval. Yagona maqsadli ko‘rsatkichlar

T/r	Ko‘rsatkich	Yagona mezon	Tekshirish usuli
1	**Kontent pasporti to‘ldirilgan kontentlar ulushi**	100%	pasportlar reyestri
2	**Rasmiy manbaga *(Lex.uz)* havola berilgan kontentlar ulushi**	100%	tanlab tekshirish
3	**Muhim normativ-huquqiy hujjat bo‘yicha birinchi kontentni joylashtirish muddati *(hujjat e’lon qilingandan keyin)***	3 ish kuni ichida	e’lon sanasi va joylashtirish sanasini solishtirish
4	**Kanal yoki sahifada haftalik joylashtirishlar soni**	kamida 3 ta	kanal *(sahifa)* statistikasi
5	**Izoh va savollarga javob berish muddati**	48 soat ichida	tanlab tekshirish
6	**Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun moslashtirilgan *(subtitr, imo-ishora tili, audio)* kontentlar ulushi**	kamida 20%	pasportlar reyestri
7	**Ko‘rishlar, obunachilar va faollik *(reaksiya, izoh, ulashish)* hisobini yuritish**	har oyda	platforma statistikasi

Izoh: *ko‘rsatkichlar barcha davlat organlari, tashkilotlar va fuqarolar uchun bir xil bo‘lib, auditoriya hajmi yoki tashkilot turiga qarab o‘zgartirilmaydi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoq faollari o‘z sahifalariga kontentlar joylashtirishda va sahifani rivojlantirishda maqsadli ko‘rsatkichlardan namuna sifatida foydalanishi mumkin.*

Mazkur Standartning joriy etilishi huquqiy kontentni tarqatishda barcha davlat organlari, tashkilotlar va fuqarolar uchun yagona talablarni o‘rnatadi. Bitta mezon va aniq belgilangan **7 ta** ko‘rsatkich asosidagi sodda baholash tizimi tashkilotlar zimmasiga ortiqcha yuklama tushirmaydi.

Bu tizim huquqiy axborotning **ishonchli, o‘z vaqtida va hamma uchun qulay shaklda** aholiga yetib borishi hamda tushunilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

VI BOB. IJTIMOIY TARMOQLARDA HUQUQIY AXBOROT YETKAZISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

6.1. Ijtimoiy tarmoqlar va rasmiy veb-saytlardan foydalanish holati hamda ularni yuritish bo‘yicha tavsiyalar

Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2026-yil 22-aprel holatiga O‘zbekistonda aholi soni **38 236 700 nafarni** tashkil etgan. Ijtimoiy tarmoqlar fuqarolarning kundalik hayotida tobora muhim o‘rin egallamoqda. Hozirda fuqarolar asosan **Telegram, Instagram, Facebook va YouTube** platformalaridan foydalanmoqda[5].

Telegram ijtimoiy tarmog‘i foydalanuvchilari soni **33 mlndan** oshgan *(aholining taxminan 83 - 88%)*.

Instagram ijtimoiy tarmog‘ida faol obunachilar soni **4,8 mlnni,** YouTubeda **7,2 mlnni** va Facebookda **2,1 mln** nafarni tashkil etadi[6].

Telegram va Instagram auditoriyasining kengayishi bilan bir qatorda, fuqarolarga axborot yetkazish shakllari ham turi ko‘paymoqda.

Shuningdek, har bir davlat organi va tashkilotining rasmiy veb-sayti mavjud bo‘lib, ularda e’lon qilinadigan materiallar **ishonchli rasmiy axborot manbai** hisoblanadi hamda aholi zarur ma’lumotlarni olishda ushbu resurslardan foydalanadi.

Biroq, davlat organlari va tashkilotlarining veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida materiallarni joylashtirish hamda ularning faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha **yagona yondashuv** shakllanmagan.

Natijada, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarni yuritishda ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yilish holatlari kuzatilmoqda. Bu ayrim holatlarda fuqarolarning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Quyida rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarni samarali yuritishga doir bir qator amaliy tavsiyalar keltiriladi.

29-jadval. Rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarni yuritish bo‘yicha tavsiyalar

Axborot resursi	Joylashtiriladigan materiallar	Tavsiya etiladigan vaqt va davriylik	Asosiy foydalanuvchilar
Rasmiy veb-sayt	tashkilot faoliyatiga oid muhim yangiliklar; amalga oshirilayotgan islohotlar; normativ-huquqiy hujjatlar; rahbariyat va tuzilma haqida ma’lumotlar; davlat xizmatlari; ochiq ma’lumotlar; hisobotlar; tanlov va bo‘sh ish o‘rinlari; murojaat qilish tartibi; tadbirlar yakunlari va boshqalar	muhim ma’lumotlar yuzaga kelishi bilan zudlik bilan; doimiy ma’lumotlar o‘zgarganda yangilanadi; hisobotlar belgilangan muddatlarda joylashtiriladi	fuqarolar, tadbirkorlar, OAV vakillari, tadqiqotchilar, davlat organlari, investorlar va tashkilot faoliyatiga oid rasmiy ma’lumot izlovchilar

[5] https://napoleoncat.com/stats/social-media-users-in-uzbekistan/
[6] https://datareportal.com/reports/digital-2026-uzbekistan

Axborot resursi	Joylashtiriladigan materiallar	Tavsiya etiladigan vaqt va davriylik	Asosiy foydalanuvchilar
Telegram	tezkor xabarlar; qisqa huquqiy tushuntirishlar; yangiliklar; e’lon va ogohlantirishlar; xizmatlardan foydalanish tartibi; infografika, videorolik va havolalar; savol-javoblar	ish kunlari, asosan 08:00 - 10:00, 12:00 - 14:00, 18:00 - 21:00 oralig‘ida; tezkor xabarlar zaruratga ko‘ra darhol	tezkor axborot olishni istaydigan keng aholi qatlami, davlat xizmatchilari, tadbirkorlar, jurnalistlar va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanuvchilar
Facebook	tashkilot faoliyati yuzasidan batafsil axborot; islohotlar sharhi; rasmiy bayonotlar; tadbirlar tafsiloti; tahliliy materiallar; fotoalbomlar; jamoatchilik muhokamasi va savol-javoblar	ish kunlari 09:00 - 11:00, 18:00 - 21:00 oralig‘ida; haftasiga 3 - 5 ta mazmunli material	katta yoshdagi fuqarolar, mutaxassislar, davlat xizmatchilari, jamoatchilik vakillari, jurnalistlar va xorijdagi vatandoshlar
Instagram	qisqa va sodda tushuntirishlar; infografikalar; karusel shaklidagi tavsiyalar; qisqa videolar (Reels); tadbirlarning muhim lavhalari; fuqarolar uchun foydali yo‘riqnomalar; stories orqali e’lon, so‘rovnoma va savol-javoblar	asosan 12:00 - 14:00 yoki 18:00 - 21:00 oralig‘ida; Stories – kun davomida; haftasiga 3 - 5 ta post yoki Reels	yoshlar, talabalar, yosh oilalar, faol internet foydalanuvchilari hamda axborotni ko‘rgazmali va qisqa shaklda qabul qiluvchi auditoriya qatlami
YouTube	batafsil videoma’ruzalar; huquqiy sharhlar; intervyu va podkastlar; matbuot anjumanlari; davlat xizmatlaridan foydalanish bo‘yicha videoyo‘riqnomalar; ijtimoiy roliklar; tadbirlarning to‘liq videoyozuvlari	odatda 17:00 - 21:00 oralig‘ida; haftasiga 3 ta sifatli video; tezkor materiallar zaruratga ko‘ra, asosan dam olish kunlari *(shanba va yakshanba)*	batafsil tushuntirishga ehtiyoj sezuvchi fuqarolar, talabalar, mutaxassislar, jurnalistlar va videokontent orqali bilim olishni afzal ko‘ruvchi fuqarolar

Axborot materiallarini barcha platformalarda bir xil shaklda takroran joylashtirish o‘rniga, ularni har bir axborot resursining xususiyati va auditoriyasiga moslashtirish maqsadga muvofiq.

Bunda **rasmiy veb-sayt** to‘liq va birlamchi axborot manbai, **Telegram** tezkor xabarlar kanali, **Facebook** batafsil izoh va jamoatchilik bilan muloqot maydoni, **Instagram** ko‘rgazmali va qisqa kontent vositasi, **YouTube** esa kengaytirilgan videomateriallar platformasi sifatida yuritilishi lozim.

Joylashtirish vaqtlari tavsiyaviy hisoblanadi. Ular sahifalarning **ichki statistikasi, auditoriya faolligi va materialning dolzarbligidan** kelib chiqib aniqlashtirib borilishi kerak.

Davlat organlari va tashkilotlari, ijtimoiy tarmoq faollari o‘z sahifalarini yuqorida ta’kidlangan tavsiyaviy mezonlardan kelib chiqib ko‘rib chiqishi va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarning har biriga xususiyatidan kelib chiqqan holda individual yondashishi tavsiya etiladi.

6.2. Ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy sahifalarni yuritish etikasi va huquqiy kontentga qo‘yiladigan amaliy talablar

Ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy axborotning samarasi faqat uning to‘g‘riligi bilan emas, balki fuqarolar uni ko‘rish, o‘qish yoki tinglashga qancha vaqt ajratishi bilan ham belgilanadi. Foydalanuvchi ijtimoiy tarmoqdagi materiallarni tezkor ko‘zdan kechiradi va ularni batafsil ko‘rish yoki o‘tkazib yuborish to‘g‘risida bir necha soniya ichida qaror qabul qiladi.

Facebook buyurtmasi asosida Nielsen kompaniyasi o‘tkazgan tadqiqot *(2015-yil)* natijalariga ko‘ra, videokontentlarni dastlabki 3 soniyasi reklamaning umumiy samaradorligiga **47 foizgacha** hissa qo‘shgan[7].

Bundan huquqiy kontent uchun ham asosiy xulosa kelib chiqadi: **eng muhim axborot materialning boshida berilishi lozim.**

Shu bilan birga, davlat organi va tashkilotining rasmiy sahifasini oddiy blog sifatida qarash noto‘g‘ri hisoblanadi. Chunki veb-sayt va ijtimoiy sahifalar tashkilot nomidan ma’lumotlarni tarqatadi, shuning uchun ulardagi har bir post, video va izohga berilgan javob tashkilot obro‘siga hamda fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchiga bevosita ta’sir qiladi.

Rasmiy sahifalarni yuritish ikki talabga birdek javob berishi kerak: **kontent ko‘zga tashlanadigan** va **tushunarli bo‘lishi,** biroq haqqoniylik, xolislik va odob-axloq me’yorlariga rioya etish kerak.

Rasmiy sahifalarni yuritish qoidalari. Rasmiy sahifalarni yuritishda quyidagi tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi:

– **haqqoniylik:** faqat rasmiy manbada tasdiqlangan ma’lumot joylashtiriladi, normativ-huquqiy hujjatga Lex.uz havolasi beriladi; hujjat loyihasi qabul qilingan hujjat sifatida taqdim etilmaydi *(IV bob)*;

– **sarlavhaning hujjat mazmuniga muvofiqligi:** sarlavha fuqarolarda qiziqish uyg‘otishi bilan birga, hujjat mazmunini to‘g‘ri aks ettirishi lozim. Bunda, matnda nazarda tutilmagan va’dalar, bo‘rttirilgan ma’lumotlar, asossiz xavotir uyg‘otuvchi hamda shoshilinch harakatga undovchi ifodalardan *(masalan, “Hamma jarimaga tortiladi!”, “Shoshiling!”)* foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

– **hurmat va xolislik:** fuqarolarning kasbi, millati, yoshi, ijtimoiy holati va boshqa shaxsiy xususiyatlaridan qat’i nazar, ularga nisbatan hurmat va xolislik tamoyillariga rioya etilishi lozim. Bunda, kamsituvchi, istehzoli, haqoratli hamda shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlovchi ifodalardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

– **shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish:** fuqarolarning surati, videotasviri, ismi-sharifi, telefon raqami, hujjatlari va murojaat mazmuni ularning roziligisiz e’lon qilinmaydi *(“Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun*[8]*)*; voyaga yetmaganlar, jabrlanuvchilar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning yuzi hamda shaxsini aniqlash imkonini beruvchi ma’lumotlar ko‘rsatilmaydi;

[7] https://www.smallscreenproducer.com/nielsen-study-the-value-of-video-ads-on-facebook/
[8] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-547-son Qonuni.

– **mualliflik huquqiga rioya etish:** boshqa sahifalardan olingan video, surat, musiqa va matnlar ruxsatsiz va manbasi ko‘rsatilmasdan ishlatilmaydi *(“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi Qonun*[9]*)*;

– **sun’iy intellektdan foydalanishda ehtiyotkor bo‘lish:** sun’iy intellekt yordamida tayyorlangan matn, tasvir va ovoz e’lon qilinishidan oldin mas’ul xodim tomonidan huquqiy jihatdan tekshiriladi, real shaxsni aks ettiruvchi sun’iy tasvir va ovozlar ishlatilmaydi, zarur hollarda kontent sun’iy intellekt yordamida tayyorlangani ko‘rsatiladi;

– **ochiq tuzatish:** xato aniqlanganda post izohsiz o‘chirilmaydi, balki **“Tuzatish”** belgisi bilan aniqlik kiritiladi;

– **bolalar xavfsizligi:** bolalarga mo‘ljallangan kontent ularning yoshi va rivojlanish xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. Bunda, zo‘ravonlikni aks ettiruvchi, qo‘rquv uyg‘otuvchi hamda bolalarning sog‘lig‘i, ruhiy va ma’naviy rivojlanishiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan axborotlardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi[10]).

30-jadval. Rasmiy sahifalarni yuritishda umumiy talablar

Mezon	Tavsiya etiladi	Yo‘l qo‘yilmaydi
Sarlavha	Fuqaro uchun foydani aks ettiruvchi aniq sarlavha: **“Pensiya endi arizasiz tayinlanadi – nima qilish kerak?”**	Aldamchi, qo‘rqituvchi yoki matn mazmuniga mos kelmaydigan sarlavha: “Diqqat! Ertadan hammaning kartasi bloklanadi!”
Manba	Hujjat nomi, sanasi, raqami va Lex.uz havolasi	“Eshitishimizcha”, “Aytishlaricha” kabi manbasiz ma’lumot
Fuqarolar tasviri	Yozma rozilik olingan yoki shaxsni aniqlab bo‘lmaydigan tasvir	Murojaatchi, bola yoki jabrlanuvchining yuzi, ismi va hujjati
Til	Davlat tilida, imlo qoidalariga rioya qilingan holda	Jargon, haqoratli ifodalar, imloviy xatolar, kirill va lotin yozuvlari aralashmasi
Izohlar	48 soat ichida rasmiy javob; murakkab masalani rasmiy murojaat kanaliga yo‘naltirish	Odob doirasidagi tanqidiy izohni o‘chirish, kinoyali yoki shaxsiy ohangdagi javob
Xato	“**Tuzatish**” belgisi bilan ochiq aniqlik kiritish	Postni izohsiz o‘chirish yoki xatoni yashirish
Sun’iy intellekt	Mas’ul xodim tekshiruvi, zarur hollarda “**SI yordamida tayyorlangan**” belgisi	Tekshirilmagan matn, real shaxsning soxta tasviri yoki ovozi

Sarlavha kontent mazmuni haqida dastlabki tasavvur hosil qiladi. Telegram, Facebook va YouTubeda fuqaro materialni ochish yoki ochmaslikni ko‘pincha faqat sarlavha yoki bildirishnomadagi birinchi qator asosida hal qiladi. Shuning uchun sarlavha:

- 10 ta so‘zdan oshmasligi *(27-jadval)* va fuqaro uchun natijani, ya’ni **“nima o‘zgardi va bu menga qanday ta’sir qiladi”** degan savolga javobni ko‘rsatishi;

- iloji boricha savol, aniq son yoki sana bilan boshlanishi *(“3 qadamda…”, “1-yanvardan…”, “Kimlar…?”)*;

[9] O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 20-iyuldagi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-42-son Qonuni.
[10] O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 8-sentabrdagi “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-444-son Qonuni.

- rasmiy hujjat nomini emas, hayotiy vaziyatni aks ettirishi lozim. Masalan, “Prezidentning 2026-yil 10-sentabrdagi PQ-319-son Qarori qabul qilindi” sarlavhasidan ko‘ra **“Tibbiyot xodimlari endi malakasini uzluksiz oshiradi: nima o‘zgardi?”** sarlavhasi samaraliroq. Hujjat rekvizitlari esa matn ichida beriladi.

Instagram: birinchi soniyalar qoidasi.

Instagram auditoriyasini asosan yoshlar tashkil etadi va ular axborotni ko‘rgazmali, qisqa shaklda qabul qiladi *(29-jadval)*. Hozirgi davr talabidan kelib chiqib huquqiy mavzudagi videolar uchun 30 - 60 soniya maqbul hisoblanadi *(27-jadval)*. Foydalanuvchi birinchi 3 soniyada mavzu unga taalluqli ekanini anglashi, birinchi 10 soniyada esa asosiy huquqiy xabarni olishi lozim. Shunda, video oxirigacha ko‘rilmasa ham, fuqaro eng muhim ma’lumotni olib ketadi. **Bir daqiqalik video** ko‘rinishidagi huquqiy materiallar quyidagilarni inobatga olgan holda tayyorlanishi tavsiya etiladi:

31-jadval. 60 soniyalik Reels *(qisqa video)*ning namunaviy tuzilmasi

Vaqt	Vazifa	Namuna
0 - 3 soniya	**diqqatni tortish:** muammoni savol yoki hayotiy vaziyat orqali ko‘rsatish; ekranda yirik matn	“Ish haqingiz ikki oydan beri berilmayaptimi?”
3 - 10 soniya	**asosiy javob:** fuqaro bilishi kerak bo‘lgan bitta eng muhim qoida	Ish beruvchi ish haqini o‘z vaqtida to‘lashi shart, kechiktirgani uchun javobgarlik belgilangan
10 - 40 soniya	**amaliy qadamlar:** nima qilish va qayerga murojaat etish *(2 yoki 3 ta qadam)*	1) Ish beruvchiga yozma ariza bering; 2) mehnat inspeksiyasiga murojaat qiling; 3) sudga da’vo arizasi bilan chiqing
40 - 55 soniya	**huquqiy asos:** hujjat nomi ekranda, qisqa izoh	Mehnat kodeksi yozuvi va Lex.uz havolasi
55 - 60 soniya	**harakatga chaqiriq:** saqlash, ulashish, savol qoldirish	Saqlab qo‘ying va ishlaydigan yaqinlaringizga ulashing

Shuningdek, Instagramda videolarning katta qismi ovozsiz ko‘riladi, shu sababli subtitr majburiy hisoblanadi. Matn ekranning yuqori va pastki chetlariga joylashtirilmaydi, chunki u yerda platforma tugmalari va izoh matni joylashadi.

YouTube: ko‘rmasdan, eshitib tushunish.

YouTubedagi huquqiy sharh, podkast va videoma’ruzalar ko‘pincha fon rejimida, ya’ni ish paytida, transportda yoki avtomobil boshqarayotganda tinglanadi. Shu sababli YouTube uchun tayyorlanadigan batafsil video ekranga qaramasdan ham to‘liq tushunarli bo‘lishi lozim:

-– ekrandagi jadval yoki slaydga **“mana bu yerda ko‘rib turganingizdek”** deb ishora qilish o‘rniga, asosiy raqamlar, muddatlar va shartlar ovoz chiqarib aytiladi;

– ovoz sifati tasvir sifatidan muhimroq hisoblanadi: tashqi mikrofon, shovqinsiz xona, aniq va sokin nutqqa e’tibor qaratiladi;

– videoning birinchi 30 soniyasida **“bu videoda nimalarni bilib olasiz”** degan qisqa reja aytiladi, oxirida esa asosiy xulosalar takrorlanadi;

– 5 - 20 daqiqalik videolarda *(27-jadval)* mavzular bo‘yicha vaqt belgilari *(bo‘limlar)* qo‘yiladi, tavsifda hujjatlar nomi va Lex.uz havolalari beriladi;

– 2024-yil oktabr oyidan YouTube Shorts davomiyligi 3 daqiqagacha uzaytirilgan: Shorts qisqa xabar va e’lonlar uchun, to‘liq videolar esa chuqur tushuntirish uchun ishlatiladi[11].

Telegram: qisqa, tushunarli va bir qarashda o‘qiladigan post.

Telegram O‘zbekistonda eng keng tarqalgan platforma bo‘lib, kanal postlari ko‘pincha bildirishnoma orqali o‘qiladi va unda faqat birinchi bir-ikki qator ko‘rinadi. Shunga ko‘ra:

– postning birinchi qatori sarlavha hisoblanadi: u qalin shriftda yoziladi, 10 ta so‘zdan oshmaydi va fuqaro uchun foydani aks ettiradi;

– matn 1 000 ta belgigacha *(27-jadval)* va 2 - 4 ta qisqa xatboshidan iborat bo‘ladi, har bir xatboshida bitta fikr bayon etiladi;

– post **“nima o‘zgardi – kimga taalluqli – nima qilish kerak – huquqiy asos *(Lex.uz havolasi)*”** tuzilmasida yoziladi;

– Telegramda rasm yoki video ostidagi matn 1024 belgi bilan cheklanganini inobatga olib, uzun matn alohida xabar sifatida yoki veb-saytga havola bilan beriladi;

– bir postda bitta mavzu yoritiladi, kun davomida bir xil mavzudagi postlar takrorlanmaydi;

– emojilar 2 - 3 tadan oshmasligi va rasmiy uslubga putur yetkazmasligi lozim;

– soat 22:00 dan keyin joylashtiriladigan postlar bildirishnomasiz *(“ovozsiz”)* yuboriladi;

– ovozli xabar va qisqa dumaloq videolar keksa yoshdagi auditoriya uchun qulay format hisoblanadi *(26-jadval)*.

Facebook: batafsil izoh va muloqot.

Facebook auditoriyasini asosan katta yoshdagi fuqarolar, mutaxassislar va xorijdagi vatandoshlar tashkil etadi *(29-jadval)*. Mazkur platformada batafsil sharhlar, fotoalbomlar hamda jamoatchilik muhokamasiga qaratilgan materiallardan foydalanish samarali hisoblanadi. Bunda, foydalanuvchilar e’tiborini jalb etish maqsadida matnning asosiy mazmuni dastlabki 2 - 3qatorda aks ettirilishi lozim, chunki matnning qolgan qismi “Ko‘proq” tugmasi orqali ochiladi. Yuqoridagi tahlil natijalari platformalar kesimida quyidagi jadvalda umumlashtirildi:

32-jadval. Platformalar bo‘yicha huquqiy kontentga qo‘yiladigan asosiy talablar

Platforma	Fuqaro axborotni qanday qabul qiladi	Asosiy talab	Tavsiya etilmaydi
Telegram	bildirishnoma va lentada tez o‘qiydi	qalin sarlavha, 1 000 ta belgigacha matn, 2 – 4 ta xatboshi, Lex.uz havolasi	uzun yaxlit matn, bir postda bir nechta mavzu, havolasiz xabar

[11] https://blog.youtube/news-and-events/tall-updates-coming-to-shorts/

Platforma	Fuqaro axborotni qanday qabul qiladi	Asosiy talab	Tavsiya etilmaydi
Instagram	ovozsiz, lentani tez aylantirib ko‘radi	birinchi 3 soniyada savol, 10 soniyada asosiy javob; subtitr; 9:16 format; 3 – 5 ta heshteg	uzun kirish, rasmiy hujjat matnini o‘qib berish, subtitrsiz video
YouTube	ko‘pincha ekranga qaramasdan tinglaydi	raqam va muddatlarni ovoz bilan aytish, sifatli ovoz, vaqt belgilari, tavsifda manba	faqat ekrandagi jadvalga tayanish, shovqinli ovoz, rejasiz uzun video
Facebook	batafsil o‘qiydi va muhokama qiladi	birinchi 2 - 3 qatorda asosiy mazmun, batafsil sharh, savollarga javob	javobsiz qoldirilgan savollar, faqat surat bilan cheklanish

Fuqarolar bilan muloqot va izohlarni boshqarish. Ijtimoiy tarmoqdagi sahifa bir tomonlama ma’lumotlar yuboriladigan vosita bo‘lib qolmasligi kerak. Izoh va savollarga 48 soat ichida javob berilishi *(28-jadval)*, javob aniq va qonunchilikka asoslangan *(havolali)* bo‘lishi lozim.

Shaxsiy ma’lumotlarni talab qiladigan yoki murakkab masalalar bo‘yicha fuqaro rasmiy murojaat kanaliga *(virtual qabulxona, ishonch telefoni)* yo‘naltiriladi va uning murojaati “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonunda[12] belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

Xodimlarning shaxsiy sahifalari. Davlat organi xodimi shaxsiy sahifasida xizmat faoliyatiga oid axborotni joylashtirganda u tashkilotning rasmiy pozitsiyasi sifatida qabul qilinishi mumkinligini inobatga olishi, xizmat siri va fuqarolarning shaxsga doir ma’lumotlarini oshkor qilmasligi, rasmiy sahifadagi materiallarni o‘zgartirmasdan va manbasi bilan ulashishi lozim.

Natijadorlik. Sahifa samaradorligi obunachilar soni bilan emas, balki auditoriyaning faolligi bilan baholanadi. Buning uchun platformalarning ichki statistikasidan quyidagi ko‘rsatkichlar har oyda kuzatib boriladi:

– Instagram: reels videosini o‘rtacha ko‘rish vaqti, saqlash va ulashishlar soni;

– YouTube: auditoriyani ushlab qolish grafigi *(tomoshabinlar videoning qaysi daqiqasida chiqib ketgani)*;

– Telegram: bitta postning o‘rtacha ko‘rishlar soni va uning obunachilar soniga nisbati;

– barcha platformalar: kelib tushgan savollar soni va ularga o‘z vaqtida javob berilganlar ulushi.

Ko‘rsatkichlari past bo‘lgan mavzu va formatlar tahlil qilinib, keyingi kontent pasportlarida *(IV bob)* inobatga olinadi.

Sahifalarga materiallarni joylashtirishdan oldin batafsil tekshirish lozim.

Har bir material e’lon qilinishidan oldin mas’ul xodim quyidagi savollarga **“ha”** deb javob bera olishi kerak:

– sarlavha 10 ta so‘zdan oshmaydimi va fuqaro uchun foydani ko‘rsatadimi?

– asosiy xabar postning birinchi qatorida yoki videoning birinchi 10 soniyasida berilganmi?

– hujjat nomi, sanasi, raqami va Lex.uz havolasi ko‘rsatilganmi?

[12] O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-445-son Qonuni.

– matn sodda, imloviy xatolarsiz va davlat tilida yozilganmi?

– videoda subtitr bormi, YouTube videosi faqat ovoz orqali ham tushunarlimi?

– fuqarolarning shaxsga doir ma’lumotlari va boshqalarning mualliflik huquqi buzilmaganmi?

– material hujjat loyihasi haqida bo‘lsa, **“loyiha”** belgisi qo‘yilganmi?

Yuqoridagi talablarga rioya qilinishi rasmiy sahifalarga bo‘lgan ishonchni oshiradi hamda huquqiy axborotni fuqaroga u odatlangan platformada, qisqa, tushunarli va xavfsiz shaklda yetkazish imkonini beradi.

WCM6186 KDY8962

O‘zbekiston Respublikasida aholining huquqiy savodxonligi darajasiga qo‘yiladigan tavsiyaviy TALABLAR
(yosh toifalari bo‘yicha)

33-jadval. Yosh toifalari bo‘yicha tavsiyaviy talablar

Yosh toifasi*	Tavsiyaviy talablar**	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
1. Bolalar **4 - 13 yosh** *(14 yoshga to‘lgunga qadar)*	***Shaxsiy xavfsizlik va oila:*** - o‘z ismi-sharifi, ota-onasining ismi, uy manzili va ota-onasining telefon raqamini bilish; - favqulodda holatda yordam so‘rash tartibini, **101** *(yong‘in xavfsizligi)*, **102** *(ichki ishlar organlari)* va **103** *(tez tibbiy yordam)* raqamlarini bilish; - notanish odamlar bilan ketmaslik, ulardan sovg‘a olmaslik, kimdir “**sir saqla**” desa, bu haqda ota-onasiga aytish kerakligini tushunish; ***Huquq va burchlar:*** - yashash, ta’lim olish, sog‘lig‘ini saqlash, dam olish va fikr bildirish kabi bola huquqlarini hamda o‘qish, ota-ona va kattalarni hurmat qilish burchini bilish; - davlat ramzlari *(bayroq, gerb, madhiya)* va Konstitutsiya haqida dastlabki tushunchaga ega bo‘lish; - o‘zgalarning narsasini ruxsatsiz olmaslik, buzmaslik, zarar yetkazganda kechirim so‘rash va zararni tiklash zarurligini tushunish; - maktab tartib-qoidalariga rioya etish, tengdoshlariga nisbatan zo‘ravonlik va kamsitish *(bulling)* holatlariga yo‘l qo‘ymaslik, bunday holatga duch kelganda kattalarga xabar berish; - yo‘l harakati qoidalarini piyoda va velosipedchi sifatida bilish, yong‘in, elektr, gaz va suv havzalari xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; ***Raqamli savodxonlik va internet xavfsizligi:*** - internetda shaxsiy ma’lumotlarni *(manzil, maktab, telefon raqami, surat)*, ota-onasining bank kartasi ma’lumotlari va SMS-kodlarni hech kimga bermaslik; - onlayn o‘yinlardagi “bepul sovg‘a”, “yutuq”, “o‘yin valyutasi” va’dalariga, notanish havola va ilovalarga ishonmaslik, ota-ona ruxsatisiz to‘lov qilmaslik; - internetda tanishgan notanish shaxslar bilan uchrashmaslik, ular yozishmani sir tutishni yoki surat yuborishni so‘rasa, darhol ota-onasiga aytish; - kiberbullingni *(internetdagi haqorat, masxara, tahdid)* tanish, javob qaytarmasdan, skrinshot olib, kattalarga xabar berish; - yoshiga mos bo‘lmagan, zo‘ravonlikka undovchi kontentdan uzoq turish, ekran vaqti chegarasiga rioya qilish; - boshqalarning suratini va videosini ruxsatsiz olmaslik hamda internetga joylamaslik.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonun, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun

Yosh toifasi*	Tavsiyaviy talablar**	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
2. Yoshlar 14–17 yosh *(18 yoshga to‘lgunga qadar)*	***Yoshga bog‘liq huquq va majburiyatlar:*** - **14 yoshdan:** o‘z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini mustaqil tasarruf etish, bankka omonat qo‘yish va uni tasarruf etish, mayda maishiy bitimlar tuzish huquqini, boshqa bitimlar esa ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakilining yozma roziligi bilan tuzilishini bilish; - **15 yoshdan:** o‘qishdan bo‘sh vaqtda sog‘lig‘i va ta’lim olishiga zarar yetkazmaydigan yengil ishlarga ota-onasidan birining yozma roziligi bilan qabul qilinishi mumkinligini, bunda ish vaqti haftasiga 24 soatdan, umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘quvchilari uchun esa 12 soatdan oshmasligini bilish; - **16 yoshdan:** ID-karta olish majburiyatini; mehnat shartnomasini mustaqil tuzish huquqini va haftasiga 36 soatdan oshmaydigan qisqartirilgan ish vaqti kafolatini; ma’muriy javobgarlik hamda umumiy tartibdagi jinoiy javobgarlik vujudga kelishini; mehnat yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanganda to‘la muomalaga layoqatli deb e’lon qilinish (emansipatsiya) imkoniyatini bilish; - **18 yoshga to‘lishi bilan:** to‘liq muomala layoqati, saylash huquqi, nikoh tuzish huquqi va muddatli harbiy xizmat majburiyati vujudga kelishini, chaqiruv uchastkasiga ro‘yxatga olinish tartibini bilish; ***Javobgarlik va huquqiy himoya:*** - jinoiy javobgarlik umumiy qoidaga ko‘ra 16 yoshdan, qonunda sanab o‘tilgan ayrim jinoyatlar uchun 14 yoshdan boshlanishini, voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash va tarbiyaviy ta’sir choralarini qo‘llashning o‘ziga xos jihatlarini bilish; - 14 yoshga to‘lmagan bola yetkazgan zarar uchun ota-onasi, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan esa o‘zi (mablag‘i yetarli bo‘lmaganda ota-onasi) javob berishini, bola tarbiyasiga oid majburiyatlarini bajarmagan ota-onaning javobgarligini bilish; - nikoh yoshi 18 yosh ekanini, erta nikoh va nikohga majburlash qonunda taqiqlanganini hamda javobgarlikka sabab bo‘lishini bilish; - 21 yoshga to‘lmagan shaxslarga alkogol va tamaki mahsulotlarini sotish, shuningdek elektron sigaretalar muomalasi taqiqlanganini; giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni iste’mol qilish ma’muriy, ularni tarqatish, jumladan **“zakladka”** usulida kuryerlik qilish esa og‘ir jinoiy javobgarlikka sabab bo‘lishini bilish; - maktabda va internetda tazyiq (bulling, kiberbulling), zo‘ravonlik va kamsitishga duch kelganda ota-onaga, o‘qituvchi va psixologga, ichki ishlar organlariga yoki Bola huquqlari bo‘yicha vakilga (Bolalar ombudsmaniga) murojaat qilish yo‘llarini bilish; ***Ta’lim va mehnat:*** - ta’lim olish huquqini, umumiy o‘rta ta’limning majburiyligini, o‘quvchining ta’lim muassasasidagi huquq va burchlarini bilish;	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi Qonun, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun

Yosh toifasi*	Tavsiyaviy talablar**	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
	- professional va oliy ta’lim tashkilotlariga qabul tartibi, to‘lov-kontrakt shartnomasi, ta’lim krediti va grantlar shartlarini bilish; - voyaga yetmaganlarni og‘ir, zararli va xavfli ishlarga, tungi ishlarga hamda ish vaqtidan tashqari ishlarga jalb qilish taqiqlanganini, mehnatga majburlash holatlarida murojaat qilish tartibini bilish; ***Raqamli xavfsizlik va internetdagi mas’uliyat:*** - shaxsiy ma’lumotlar, parollar, SMS-kodlar va bank kartasi ma’lumotlarini hech kimga bermaslik, fishing havolalar, soxta sayt va ilovalarni tanib olish, ikki bosqichli autentifikatsiyani yoqishni bilish; - **“tez va oson daromad”** va’da qiluvchi e’lonlar orqali bank kartasi, SIM-karta yoki shaxsiy hujjatni boshqalarga berish firibgarlik sxemalariga sherik bo‘lishga va javobgarlikka olib kelishini, litsenziyasiz onlayn qimor va tikish o‘yinlarining xavflarini bilish; - ijtimoiy tarmoqlarda notanish shaxslar tomonidan ishonchga kirib og‘dirish (gruming), intim surat yoki video so‘rash va ular bilan tahdid qilish (shantaj) holatlarida talabni bajarmasdan, dalillarni saqlab, ota-onaga va ichki ishlar organlariga murojaat qilishni bilish; - ijtimoiy tarmoqlarda haqorat, tuhmat, yolg‘on axborot, zo‘ravonlik va ekstremizmga undovchi materiallarni tarqatish, boshqa shaxsning surati va shaxsga doir ma’lumotlarini uning roziligisiz joylashtirish javobgarlikka sabab bo‘lishini bilish; - 16 yoshdan ID-karta asosida OneID va elektron raqamli imzo orqali davlat xizmatlaridan foydalanish, akkaunt paroli va imzo kalitini begonalarga bermaslikni bilish.	
3. Yoshlar 18–30 yosh *(31 yoshga to‘lgunga qadar)*	***Yoshga bog‘liq huquq va majburiyatlar:*** - **18 yoshdan:** to‘liq muomala layoqati vujudga kelishi bilan tuzilgan bitimlar va olingan majburiyatlar uchun shaxsan to‘liq javobgar bo‘lishni, saylash huquqi va nikoh tuzish huquqini bilish; - **18–27 yoshda:** muddatli harbiy xizmatga chaqirilish majburiyatini, chaqiruvni kechiktirish asoslarini, safarbarlik chaqiruv rezervidagi xizmat tartibini hamda harbiy xizmatdan bo‘yin tovlaganlik uchun javobgarlikni bilish; - **21 yoshdan:** alkogol va tamaki mahsulotlari faqat 21 yoshga to‘lgan shaxslarga sotilishini, mahalliy Kengashlar deputatligiga saylanish huquqi vujudga kelishini bilish; - **25 yoshdan:** Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylanish huquqi vujudga kelishini bilish; - **30 yoshdan oshmaganlar uchun:** “yosh oila” maqomini, yoshlarga oid davlat dasturlari doirasida beriladigan imtiyozli kredit, subsidiya va grantlar, uy-joy olishga ko‘maklashish imkoniyatlarini bilish; ***Oila va nikoh:*** - nikoh tuzish shartlari va tartibini, nikohdan oldin	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, Uy-joy kodeksi, Soliq kodeksi, Saylov kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun, “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonun, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan

Yosh toifasi*	Tavsiyaviy talablar**	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
	tibbiy ko‘rikdan o‘tish talabini, er-xotinning teng huquq va majburiyatlarini, nikoh shartnomasi, er-xotinning umumiy mulki va nikohdan ajralish tartibini bilish; - bola tug‘ilganligini qayd etish, otalikni belgilash, aliment majburiyatlari, homiladorlik va tug‘ish ta’tili, bola parvarishi ta’tili hamda nafaqalar olish tartibini bilish; - oilada tazyiq va zo‘ravonlikka duch kelganda himoya orderi olish, ichki ishlar organlari va ijtimoiy xizmatlarga murojaat qilish tartibini bilish; ***Ta’lim, mehnat va bandlik:*** - oliy ta’lim tashkilotlariga qabul, to‘lov-kontrakt shartnomasi, ta’lim krediti va grantlar shartlarini bilish; - mehnat shartnomasini yozma shaklda tuzish, sinov muddati (uch oygacha), ish haqi, ish vaqti va ta’til, ishdan noqonuniy bo‘shatish ustidan shikoyat qilish tartibini, norasmiy bandlik ijtimoiy kafolatlar va pensiya stajidan mahrum qilishini bilish; - ishsiz sifatida ro‘yxatdan o‘tish, ishsizlik nafaqasi olish, kasbga o‘qitish va qayta tayyorlash imkoniyatlarini bilish; - frilans, onlayn platformalar va marketpleyslar orqali daromad olishda o‘zini o‘zi band qilgan shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tish va soliq majburiyatlarini bilish; - xorijga ishga yoki o‘qishga faqat qonuniy yo‘llar va litsenziyaga ega xususiy bandlik agentliklari orqali ketish, odam savdosi va majburiy mehnat belgilarini bilish; ***Mulk, moliya va iste’molchi huquqlari:*** - ko‘chmas mulk, yer uchastkasi va avtotransport vositasi bilan bog‘liq bitimlarda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va notarial tasdiqlash tartibini bilish; - uy-joy ijarasi va ipoteka shartnomalari, kredit, onlayn mikroqarz va muddatli to‘lov *(bo‘lib to‘lash)* shartlarini, umumiy qiymat, foiz va jarimalarni imzolashdan oldin tekshirishni bilish; - onlayn xaridlarda sotuvchi to‘g‘risida to‘liq axborot olish, chek va kafolatni saqlash, sifatsiz tovarni qaytarish va almashtirish tartibini bilish; ***Raqamli xavfsizlik va internetdagi mas’uliyat:*** - fishing havolalar, soxta sayt va ilovalar, **“bank xodimi”** yoki **“xavfsizlik xizmati”** nomidan qilinadigan qo‘ng‘iroqlarni tanib olish, SMS-kod, karta amal qilish muddati va CVV kodini, parollarni hech kimga bermaslik, ikki bosqichli autentifikatsiyani yoqishni bilish; - soxta treyding, investitsiya va kriptovalyuta loyihalari belgilarini (**“kafolatlangan yuqori daromad”**, **“bir soatda 20 baravar foyda”** kabi va’dalar, yangi a’zo jalb qilish talabi, litsenziyaning yo‘qligi) bilish va mablag‘ kiritishdan oldin tashkilot litsenziyasini tekshirish; - o‘z bank kartasi, hisobvarag‘i, SIM-kartasi yoki shaxsiy hujjatini pul evaziga boshqalarga berish firibgarlik va jinoiy daromadlarni legallashtirish sxemalariga sherik	himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun

Yosh toifasi*	Tavsiyaviy talablar**	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
	bo‘lishga va javobgarlikka olib kelishini bilish; - litsenziyasiz onlayn qimor va tikish o‘yinlarining huquqiy va moliyaviy xavflarini bilish; - shaxsiy surat va videolar bilan tahdid qilish (shantaj), sun’iy intellekt yordamida yaratilgan soxta tasvir va ovozlar (deepfake) holatlarida talabni bajarmasdan, dalillarni saqlab, ichki ishlar organlariga murojaat qilishni bilish; - ijtimoiy tarmoqlarda tuhmat, haqorat, yolg‘on axborot, zo‘ravonlik va ekstremizmga undovchi materiallarni tarqatganlik uchun javobgarlikni, mualliflik huquqi va boshqalarning shaxsiy hayoti daxlsizligini hurmat qilish majburiyatini bilish; - davlat xizmatlarini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali *(my.gov.uz)*, OneID va elektron raqamli imzo orqali olish, davlat organlariga onlayn murojaat qilish, OneID paroli va elektron raqamli imzo kalitini begonalarga bermaslik, elektron imzo bilan imzolangan hujjat uchun shaxsan javobgar ekanini bilish.	
4. Kattalar **31 - 54 yosh** *(55 yoshga to‘lgunga qadar)*	***Onlayn davlat xizmatlari:*** - davlat xizmatlarini my.gov.uz portali, mobil ilovalar va davlat xizmatlari markazlari orqali olish, OneID paroli va elektron raqamli imzo kalitini begonalarga bermaslik, elektron imzo bilan imzolangan hujjat uchun shaxsan javobgar ekanini bilish; - ko‘chmas mulk, yer uchastkasi va avtotransport bitimlarida kadastr, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va notarial tasdiqlash tartibini, mulkdagi taqiq va garovni elektron reyestrlar orqali oldindan tekshirishni bilish; - davlat organlariga onlayn murojaat qilish, murojaatni ko‘rib chiqish muddatlari va javob ustidan shikoyat qilish tartibini bilish; ***Mehnat, soliq va ijtimoiy ta’minot:*** - mehnat shartnomasi, ish haqi, ta’til, mehnat xavfsizligi, ishdan bo‘shatish asoslari va mehnat nizolarini hal etish tartibini bilish; - pensiya staji va ish haqi ma’lumotlarini hamda jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ini onlayn tekshirib borish, norasmiy bandlikning pensiya va ijtimoiy kafolatlarga salbiy ta’sirini anglash; - daromad, mol-mulk va yer soliqlari, qonunchilikda nazarda tutilgan soliq imtiyozlari hamda onlayn soliq kabinetidan foydalanishni bilish; - onlayn savdo va xizmatlar orqali olingan daromadni rasmiylashtirish, o‘zini-o‘zi band qilgan shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor maqomlarining farqini bilish; - davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqini bilish; ***Oila va farzandlar:*** - er-xotinning umumiy mol-mulki, nikoh shartnomasi, aliment majburiyatlari, vasiyatnoma va meros tartibini bilish;	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Saylov kodeksi, Oila kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, Jinoyat kodeksi, Soliq kodeksi, “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi Qonun, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun, “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonun

Yosh toifasi*	Tavsiyaviy talablar**	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
	- homiladorlik va tug‘ish ta’tili, bolani parvarishlash ta’tili va bolali oilalarga beriladigan nafaqa hamda kafolatlarni bilish; - farzandlarning internetdagi xavfsizligini ta’minlash: ota-ona nazorati vositalari, onlayn o‘yinlardagi to‘lovlar, kiberbulling va bolalarni zararli axborotdan himoya qilish talablarini bilish; ***Moliyaviy xavfsizlik va firibgarlikdan himoya:*** - kredit, ipoteka, avtokredit va muddatli to‘lov shartnomalarini imzolashdan oldin umumiy qiymat, foiz va jarimalarni tekshirish, kafillik javobgarligini, kredit tarixi ahamiyatini va kredit olishga o‘z-o‘ziga taqiq qo‘yish imkoniyatini bilish; - **“bank xodimi”, “huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi”** yoki qarindosh nomidan qo‘ng‘iroqlar, soxta yutuq va kompensatsiya va’dalarini tanish; firibgarlik yuz berganda kartani darhol bank orqali bloklash va 102 raqamiga murojaat qilish; - soxta investitsiya, treyding va “passiv daromad” platformalari hamda moliyaviy piramidalarning belgilarini *(kafolatlangan yuqori daromad, yangi a’zo jalb qilish talabi, litsenziyaning yo‘qligi, noma’lum hisobga pul o‘tkazish talabi)* bilish; - soxta onlayn do‘kon va e’lon saytlarida oldindan to‘lov olish orqali firibgarlik usullarini va xavfsiz to‘lov usullarini bilish; - sun’iy intellekt yordamida yaratilgan soxta ovoz va videolar (deepfake) orqali qarindosh yoki rahbar nomidan pul so‘rash holatlarida pulni o‘tkazishdan oldin shaxsni boshqa aloqa vositasi orqali tekshirish.	
5. Keksa yoshdagi fuqarolar 55 yosh va undan katta	***Pensiya va ijtimoiy kafolatlar:*** - pensiya yoshi *(ayollar uchun 55, erkaklar uchun 60 yosh)*, yoshga doir pensiyani hisoblash uchun staj hamda ish haqi ma’lumotlarini oldindan onlayn tekshirish imkoniyatini bilish; - pensiya va nafaqalarni bank kartasiga olish, bank ilovasidan xavfsiz foydalanish, pensiyadan ushlab qolish asoslari va cheklovlarini bilish; - ijtimoiy xizmatlar *(uyda parvarish, reabilitatsiya vositalari, sanatoriy-kurort yo‘llanmalari)*, bepul tibbiy yordam va imtiyozli dori vositalari bilan ta’minlanish tartibini bilish; - mehnatga layoqatli voyaga yetgan farzandlarning muhtoj ota-onasini ta’minlash majburiyati va aliment undirish tartibini bilish; - davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqini bilish; ***Mulk, meros va bitimlar:*** - vasiyatnoma tuzish, meros ochilishi va uni qabul qilish tartibini bilish; - uy-joyni hadya qilish, sotish, garovga qo‘yish, umrbod ta’minlash sharti bilan boshqa shaxsga berish	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, Jinoyat kodeksi, Saylov kodeksi, “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonun, “Notariat to‘g‘risida”gi Qonun, “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonun, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonun, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari

Yosh toifasi*	Tavsiyaviy talablar**	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
	bitimlari va bosh ishonchnoma berishning huquqiy oqibatlarini anglash; ***Firibgarlik va kiberjinoyatlardan himoyalanish:*** - “farzandingiz (nevarangiz) avariyaga tushdi”, “kartangiz bloklandi”, “pensiyangiz oshiriladi”, “kompensatsiya to‘lanadi” kabi qo‘ng‘iroq va xabarlarni firibgarlik belgisi sifatida tanish, qo‘ng‘iroqni tugatib, qarindoshiga o‘zi qayta qo‘ng‘iroq qilish; - pul, bank kartasi, SMS-kod va hujjatlarni begonalarga, hatto o‘zini davlat yoki bank xodimi deb tanishtirgan shaxsga ham bermaslik; - uyga kelgan “ijtimoiy xodim”, “gaz xodimi”, “tibbiyot xodimi”ning xizmat guvohnomasini tekshirish, shubha tug‘ilganda 102 raqamiga yoki mahallaga murojaat qilish; - telefon va ijtimoiy tarmoqlar orqali sotiladigan soxta dori vositalari, **“mo‘jizaviy davolash”** va’dalari hamda **“pensiyani ko‘paytirish”** investitsiya takliflariga ishonmaslik; - nomiga kredit yoki SIM-karta rasmiylashtirilishining oldini olish uchun kredit olishga o‘z-o‘ziga taqiq qo‘yish imkoniyatini bilish; ***Raqamli xizmatlar va huquqlarni himoya qilish:*** - davlat xizmatlaridan my.gov.uz portali, mobil ilovalar va davlat xizmatlari markazlari orqali foydalanish, zarur hollarda yaqin qarindoshlari yordamidan foydalanish; - keksalarga nisbatan zo‘ravonlik, kamsitish va tazyiq holatlarida himoya choralarini, vasiylik va homiylik asoslarini bilish; - bepul yuridik yordam olish, mahalla, Inson markazlari va Inson huquqlari bo‘yicha vakil *(Ombudsman)*ga murojaat qilish imkoniyatlarini bilish.	to‘g‘risida”gi Qonun

Izoh:

* yosh toifasi bo‘yicha tavsiyaviy talablar – fuqarolarning yoshiga qarab qanday huquqiy bilimlarga ega bo‘lishi lozimligini belgilab beruvchi mezon.

** yuqori yosh toifasidagi fuqarolar quyi toifadagi fuqarolarga qo‘yilgan talablarni ham bilishlari inobatga olinadi.

1. 4 - 13 yoshdagi bolalar uchun talablar ularning yoshiga mos ravishda yetkaziladi: 4 - 6 yoshdagilarga asosan o‘yin, multfilm va ertak orqali, 7 - 13 yoshdagilarga esa dars, test va interaktiv mashg‘ulotlar orqali.

2. Raqamli xizmatlardan xavfsiz foydalanish, firibgarlik va kiberjinoyatlardan himoyalanishga oid talablar barcha yosh toifalari uchun ustuvor hisoblanadi va har bir toifaning yoshi hamda ehtiyojiga moslashtirilgan.

3. Mazkur tavsiyaviy talablar huquqiy ong va huquqiy madaniyat kompetensiyasi bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, ular shaxsdan talablarni bilish bilan birga, ularga amalda qo‘llashni ham nazarda tutadi.

4. Talablarni o‘zlashtirish darajasi aholi o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish, kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish, ijtimoiy tarmoqlardagi test va viktorinalar hamda boshqa tadbirlar orqali aniqlanadi.

5. Firibgarlik va kiberjinoyatlarning yangi usullari paydo bo‘lishini inobatga olib, talablar Adliya vazirligi tomonidan qayta ko‘rib chiqiladi va zarur hollarda yangilanadi.

2-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasida aholining ayrim toifalari huquqiy savodxonligi darajasiga qo‘yiladigan tavsiyaviy TALABLAR

(aholining ayrim toifalari bo‘yicha)

34-jadval. Aholining ayrim toifalari bo‘yicha tavsiyaviy talablar

Toifa*	Tavsiyaviy talablar	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
1. Pensionerlar va keksa yoshdagi fuqarolar	- pensiya turlari *(yoshga doir, nogironlik, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi)* va ularni tayinlash shartlari haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lish; - yoshga doir pensiya tayinlanishini hamda pensiya ish staji va ish haqi ma’lumotlari asosida hisoblanishini bilish; - pensiyadan ushlab qolish asoslari va qonunchilikda belgilangan cheklovlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish; - pensiya va nafaqalarni olish usullarini bilish, bank kartasi, SMS-kod va shaxsiy ma’lumotlarni begonalarga bermaslik zarurligini tushunish; - keksa fuqarolarga nisbatan qo‘llaniladigan firibgarlik usullari *(telefon qo‘ng‘irog‘i, **“yaqin qarindoshi nomidan”** murojaat, **soxta yutuq** va imtiyoz va’dalari)* va ulardan himoyalanish yo‘llarini bilish; - vasiyatnoma tuzish, meros ochilishi va merosni qabul qilish tartibining asosiy qoidalarini bilish; - uy-joyni hadya qilish, sotish, garovga qo‘yish hamda shartnomalar tuzishning huquqiy oqibatlarini anglash; - mehnatga layoqatli voyaga yetgan farzandlarning muhtoj ota-onasini ta’minlash majburiyati haqida tushunchaga ega bo‘lish; - ijtimoiy xizmatlar *(uyda parvarish, reabilitatsiya vositalari, sanatoriy-kurort yo‘llanmalari)* turlari va ularni olish uchun murojaat qilish tartibini bilish; - davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordamdan foydalanish huquqini bilish; - davlat organlari, mahalla va davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilish hamda bepul yuridik maslahat olish imkoniyatlarini bilish; - pensionerlar va keksa fuqarolar uchun qonunchilikda belgilangan imtiyozlar haqida tushunchaga ega bo‘lish.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, Jinoyat kodeksi, “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonun, “Notariat to‘g‘risida”gi Qonun, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonun
2. Nogironligi bo‘lgan shaxslar va ularning qonuniy vakillari	- nogironlik holatiga ko‘ra har qanday kamsitish taqiqlanganini va buzilgan huquqlarni himoya qilish yo‘llarini bilish; - tibbiy-ijtimoiy ekspertizadan o‘tish, nogironlik guruhini belgilash tartibi va ekspertiza xulosasi ustidan shikoyat qilish huquqini bilish; - reabilitatsiyaning yakka tartibdagi dasturi hamda u asosida taqdim etiladigan xizmat va vositalar haqida	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, Fuqarolik kodeksi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi

Toifa*	Tavsiyaviy talablar	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
	ma’lumotga ega bo‘lish; - nogironlik pensiyasi yoki nafaqasini tayinlash va qayta hisoblash tartibini bilish; - protez-ortopediya moslamalari, surdotexnika va boshqa reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta’minlanish huquqini bilish; - ta’lim olish huquqi, inklyuziv ta’lim va uyda ta’lim olish imkoniyatlarini bilish; - mehnat qilish huquqi, ish joylarining eng kam soni *(kvota)*, ish joyini oqilona moslashtirish hamda qonunchilikda nazarda tutilgan ish vaqti va ta’til bo‘yicha kafolatlarni bilish; - binolar, transport, axborot va aloqa vositalaridan to‘siqsiz foydalanish talablarini bilish, ular buzilganda vakolatli organlarga murojaat qila olish; - sud va tergov harakatlarida imo-ishora tili tarjimoni xizmatidan foydalanish huquqini bilish; - soliq, davlat boji va boshqa to‘lovlar bo‘yicha qonunchilikda belgilangan imtiyozlarni bilish; - muomala layoqatini cheklash, vasiylik va homiylik belgilash asoslari hamda ularning huquqiy oqibatlarini bilish; - Inson huquqlari bo‘yicha vakil *(Ombudsman)*, ijtimoiy himoya organlari va nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamoat birlashmalariga murojaat qilish imkoniyatlarini bilish.	Konvensiyasi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonun
3. Pedagoglar ***(o‘qituvchilar)***	- pedagogning huquqlari, majburiyatlari va kasbiy faoliyati kafolatlarini bilish; - pedagogning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘si davlat himoyasida ekanligini hamda uni himoya qilish yo‘llarini bilish; - pedagogni kasbiy faoliyatiga aloqador bo‘lmagan ishlarga jalb etish va uning kasbiy faoliyatiga noqonuniy aralashish taqiqlanganini hamda buning uchun javobgarlik belgilanganini bilish; - ta’lim oluvchilarning huquqlari va bola huquqlari kafolatlarini bilish, ularga rioya etish; - ta’lim jarayonida bolaga nisbatan zo‘ravonlik, kamsitish va jismoniy jazo qo‘llash taqiqlanganini anglash; - bolaga nisbatan zo‘ravonlik, qarovsizlik yoki huquqbuzarlik alomatlari aniqlanganda vakolatli organlarga xabar berish tartibini bilish; - ta’lim oluvchilar va ularning oila a’zolariga oid shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish talablarini bilish; - ota-onalardan noqonuniy pul yig‘ish, sovg‘a olish kabi mayda maishiy korrupsiyaviy holatlar va ular uchun javobgarlikni bilish; - mehnat shartnomasi, attestatsiya, malaka toifasi, ish vaqti va ta’til bo‘yicha qonunchilik qoidalarini	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonun, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun

Toifa*	Tavsiyaviy talablar	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
	bilish; - o‘quv materiallari tayyorlashda mualliflik huquqiga rioya qilish qoidalarini bilish; - ta’lim tashkilotida yong‘in xavfsizligi, sanitariya va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish qoidalariga rioya etish; - ta’lim oluvchilarga yosh toifasiga mos huquqiy bilimlarni yetkazish ko‘nikmasiga ega bo‘lish; - kasbiy nizolarni hal etish, adliya, mehnat inspeksiyasi va sudga murojaat qilish tartibini bilish.	
4. Hamshiralar va o‘rta tibbiyot xodimlari	- bemorning huquqlarini *(hurmat ko‘rsatilishi, tibbiy yordam olish, sog‘lig‘i holati haqida axborot olish, tibbiy aralashuvga rozilik berish yoki undan voz kechish)* bilish va ularga rioya qilish; - shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish majburiyati va bemorni yordamsiz qoldirganlik uchun javobgarlikni bilish; - tibbiy sirni saqlash majburiyati va uni oshkor qilishga yo‘l qo‘yiladigan hollarni bilish; - bemorlarning shaxsga doir ma’lumotlarini, jumladan elektron tibbiy yozuvlardagi ma’lumotlarni himoya qilish talablarini bilish; - tibbiy aralashuvga bemorning, voyaga yetmaganlar va muomalaga layoqatsiz shaxslar uchun esa qonuniy vakilining roziligini olish tartibini bilish; - dori vositalarini saqlash, hisobini yuritish va qo‘llash qoidalarini bilish; - sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi rejim talablariga rioya etish majburiyatini bilish; - kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslik oqibatlari hamda intizomiy, ma’muriy va jinoiy javobgarlik turlarini bilish; - tibbiyot xodimining huquqlari, kasbiy faoliyati chog‘ida sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish yo‘llarini bilish; - navbatchilik, tungi ish, zararli mehnat sharoitlari uchun belgilangan kafolatlar va majburiy tibbiy ko‘riklardan o‘tish tartibini bilish; - zo‘ravonlik yoki jinoyat alomatlari bo‘lgan jarohat bilan murojaat qilgan bemorlar haqida vakolatli organlarni xabardor qilish tartibini bilish; - bemorlardan norasmiy haq olish kabi mayda maishiy korrupsiyaviy holatlarga yo‘l qo‘ymaslik, buning uchun javobgarlik mavjudligini bilish; - keksa va nogironligi bo‘lgan bemorlarga xizmat ko‘rsatishda kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik; - tibbiyot xodimlariga qonunchilikda belgilangan imtiyozlardan xabardor bo‘lish.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi, “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonun, “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi Qonun, “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi Qonun, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun
5. Transport vositalari	- yo‘l harakati qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini hamda Yo‘l harakati qoidalarini bilish;	Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks,

Toifa*	Tavsiyaviy talablar	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
haydovchilari	- haydovchilik guvohnomasi toifalari, uni olish, almashtirish tartibi va transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etish asoslarini bilish; - transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish, texnik ko‘rikdan o‘tkazish va boshqa shaxsga boshqarish uchun berish tartibini bilish; - transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish shartlari va sug‘urta hodisasi yuz berganda harakat qilish tartibini bilish; - yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lganda haydovchining majburiyatlarini *(to‘xtash, jabrlanuvchiga birinchi yordam ko‘rsatish, vakolatli organlarni xabardor qilish, voqea joyini tark etmaslik)* bilish; - mast holatda transport boshqarish, tezlikni oshirish, harakatlanish vaqtida telefondan foydalanish kabi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlikni bilish; - foto-video qayd etish vositalari orqali aniqlangan huquqbuzarliklar bo‘yicha jarimalarni to‘lash tartibi va qaror ustidan shikoyat qilish huquqini bilish; - piyodalarga, ayniqsa bolalar, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga yo‘l berish majburiyatini bilish; - bolalarni tashishda bolalar o‘rindig‘i va xavfsizlik kamaridan foydalanish talablarini bilish; - yo‘l harakati xavfsizligi xodimlari bilan muomalada o‘z huquq va majburiyatlarini, hujjatlarni ko‘rsatish tartibini bilish; - yo‘lovchi va yuk tashishni haq evaziga amalga oshirishda qonunchilikda belgilangan ruxsat va ro‘yxatdan o‘tish talablarini bilish; - transport vositasining oldi-sotdisi, garovi va lizingi bo‘yicha bitimlarning huquqiy oqibatlarini bilish.	Jinoyat kodeksi, Fuqarolik kodeksi, “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonun, “Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi Qonun
6. Tadbirkorlar	- tadbirkorlik subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, faoliyatini to‘xtatish va tugatish tartibini bilish; - tashkiliy-huquqiy shakllar *(yakka tartibdagi tadbirkor, mas’uliyati cheklangan jamiyat, oilaviy tadbirkorlik)* hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxs maqomining farqlarini bilish; - litsenziya, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari talab etiladigan faoliyat turlarini bilish; - soliq turlari va rejimlari, soliq hisobotini topshirish va soliq to‘lash muddatlari, soliq to‘lovchining huquq va majburiyatlarini bilish; - onlayn nazorat-kassa texnikasi va elektron hisobvaraq-fakturalardan foydalanish majburiyatlarini bilish; - tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashish taqiqlanganini, tekshiruvlar o‘tkazish asoslari va tartibini bilish;	Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, Mehnat kodeksi, Yer kodeksi, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonun, “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun

Toifa*	Tavsiyaviy talablar	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
	- xodimlar bilan mehnat shartnomasini tuzish, ish haqini o‘z vaqtida to‘lash va mehnatni muhofaza qilish majburiyatlarini bilish; - iste’molchilar huquqlarini himoya qilish talablari va ular buzilganda javobgarlikni bilish; - shartnomalar tuzish, majburiyatlarni ta’minlash usullari hamda nizolarni sud, hakamlik sudi va mediatsiya orqali hal etish tartibini bilish; - tovar belgisi, firma nomi va boshqa intellektual mulk obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va himoya qilishni bilish; - insofsiz raqobat taqiqlanganini va davlat xaridlarida ishtirok etish tartibini bilish; - tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil *(biznes-ombudsman)*, adliya, prokuratura va sudga murojaat qilish imkoniyatlarini bilish.	
7. Fermer va dehqon xo‘jaliklarini yurituvchilar	- fermer va dehqon xo‘jaligining huquqiy maqomi, ularni tashkil etish va faoliyatini tugatish tartibini bilish; - yer uchastkasiga ijara, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish va boshqa huquqlarning mazmunini bilish; - yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini bilish; - yer uchastkasini olib qo‘yish asoslari, zararni qoplash va huquqlarni himoya qilish tartibini bilish; - yerdan maqsadli va oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash majburiyatlarini hamda yerni o‘zboshimchalik bilan egallaganlik uchun javobgarlikni bilish; - suvdan foydalanish tartibi va suvni tejash majburiyatlarini bilish; - qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, sotish va xarid qilish shartnomalari bo‘yicha huquq va majburiyatlarni bilish; - majburiy mehnat taqiqlanganini hamda xodimlarni yollashda mehnat qonunchiligiga rioya qilish majburiyatini bilish; - pestitsid va agrokimyoviy vositalardan foydalanish, veterinariya va o‘simliklar karantini talablarini bilish; - yer solig‘i va boshqa soliq majburiyatlarini bilish; - subsidiya, imtiyozli kredit va qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi imkoniyatlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish; - atrof-muhitni muhofaza qilish talablari va ularni buzganlik uchun javobgarlikni bilish.	Yer kodeksi, Suv kodeksi, Soliq kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonun, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonun
8. Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga	- xorijga qonuniy asosda ishga ketish yo‘llarini *(xorijga qonuniy yuborish, litsenziyaga ega xususiy bandlik agentliklari)* va noqonuniy vositachilar xavfini bilish;	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi *(umumiy tushunchalar),*

Toifa*	Tavsiyaviy talablar	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
oshiruvchi fuqarolar *(mehnat migrantlari)*	- mehnat shartnomasini tuzishda ish haqi, ish vaqti, yashash sharoiti va sug‘urta shartlarini tekshirish zarurligini anglash; - boriladigan mamlakatga kirish, u yerda bo‘lish, ro‘yxatdan o‘tish va mehnat faoliyati uchun ruxsatnoma olish talablarini bilish; - pasport va boshqa shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni begonalarga bermaslik zarurligini anglash; - odam savdosi va majburiy mehnat belgilarini hamda bunday holatda yordam olish yo‘llarini bilish; - xorijdagi diplomatik vakolatxona va konsullik muassasalarida hisobga turish va konsullik yordamidan foydalanish tartibini bilish; - xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat yordami va jamg‘arma imkoniyatlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish; - xorijda ishlagan davrni ish stajiga qo‘shib hisoblash shartlarini bilish; - boshqa davlat fuqaroligini qabul qilishning huquqiy oqibatlarini bilish; - ishlayotgan mamlakat qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik va deportatsiya oqibatlarini anglash; - oila a’zolarini ta’minlash, aliment majburiyatlari va xorijdan turib ishonchnoma rasmiylashtirish tartibini bilish; - qaytib kelgandan so‘ng ishga joylashish, kasb-hunarga o‘qish va tadbirkorlikni boshlash uchun davlat ko‘magi imkoniyatlarini bilish.	“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun, “Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi Qonun, “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘g‘risida”gi Qonun
9. Davlat fuqarolik xizmatchilari	- davlat fuqarolik xizmatining prinsiplarini, xizmatchining huquqlari, majburiyatlari va unga nisbatan belgilangan cheklovlarni bilish; - davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloq qoidalarini bilish va unga rioya etish; - manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasini, uning oldini olish choralarini va manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda rahbarni xabardor qilish majburiyatini bilish; - korrupsiyaviy huquqbuzarliklar, sovg‘alar olish bo‘yicha cheklovlar va korrupsiya holatlari haqida xabar berish tartibini bilish; - jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish tartibi, muddatlari va ularni buzganlik uchun javobgarlikni bilish; - ma’muriy tartib-taomillar prinsiplari, ma’muriy hujjat qabul qilish va unga shikoyat qilish tartibini bilish; - davlat xizmatlarini ko‘rsatish tartibi va ular ko‘rsatilishida fuqarolardan ortiqcha hujjat talab qilish taqiqlanganini bilish; - axborot olish erkinligi va davlat organlari faoliyatining ochiqligi talablarini bilish;	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun, “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi Qonun, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarori bilan

Toifa*	Tavsiyaviy talablar	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
	- shaxsga doir ma’lumotlar, xizmat siri va davlat sirlarini himoya qilish talablarini bilish; - normativ-huquqiy hujjatlar ierarxiyasini, ularni qo‘llash qoidalarini va Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi *(Lex.uz)* dan foydalanishni bilish; - intizomiy javobgarlik choralari hamda mansab vakolatlarini suiiste’mol qilish kabi huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni bilish; - sud hujjatlari va vakolatli organlarning qonuniy talablarini bajarish majburiyatini bilish.	tasdiqlangan “Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari”
10. Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar	- ota-onalarning farzandlarni tarbiyalash, ta’minlash va ularning ta’lim olishini ta’minlash bo‘yicha teng huquq va majburiyatlarini bilish; - bola huquqlari kafolatlarini hamda bolaga nisbatan zo‘ravonlik va jismoniy jazo qo‘llash taqiqlanganini bilish; - bola tug‘ilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va otalikni belgilash tartibini bilish; - aliment majburiyatlari, aliment undirish tartibi va uni to‘lamaslik oqibatlarini bilish; - ota-onalik huquqidan mahrum qilish yoki uni cheklash asoslari va oqibatlarini bilish; - nikoh yoshi, erta nikoh hamda yaqin qarindoshlar o‘rtasida nikoh taqiqlanganini hamda uning huquqiy oqibatlarini bilish; - farzandning umumiy o‘rta ta’lim olishini ta’minlash majburiyatini bilish; - voyaga yetmaganlar mehnatidan foydalanishga oid cheklovlarni bilish; - farzand tarbiyasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaganlik va voyaga yetmaganlar sodir etgan huquqbuzarliklar uchun ota-onalarning javobgarligini bilish; - farzandlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi zararli axborotdan himoya qilish talablarini bilish; - homiladorlik va tug‘ish ta’tili, bolani parvarishlash ta’tili va bolali oilalarga beriladigan davlat nafaqalari bo‘yicha kafolatlarni bilish; - nikoh bekor qilinganda bolaning yashash joyini belgilash va ota-onaning bola bilan muloqot qilish huquqini bilish; - farzandlikka olish, vasiylik va homiylik belgilash tartibini bilish.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun
11. Xotin-qizlar	- gender tengligi va kamsitishning taqiqlanganligi tamoyillarini, jinsi bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitish tushunchalarini bilish; - oilaviy zo‘ravonlik turlarini *(jismoniy, ruhiy, iqtisodiy, jinsiy)* va ularning huquqiy javobgarlikka sabab bo‘lishini bilish; - zo‘ravonlikka duch kelganda ichki ishlar organlariga murojaat qilish va himoya orderi olish	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, Jinoyat kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks,

Toifa*	Tavsiyaviy talablar	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
	tartibini bilish; - nikoh tuzish va bekor qilishning huquqiy asoslari, nikoh shartnomasi tuzish imkoniyatini bilish; - er-xotin mol-mulkini taqsimlash, aliment undirish va bolaning yashash joyini belgilash tartibini bilish; - mehnat sohasida homiladorlik va onalik sababli kamsitish taqiqlanganini, homiladorlik va tug‘ish ta’tili kafolatlarini bilish; - bepul yuridik yordam hamda psixologik-ijtimoiy ko‘mak olish imkoniyatlarini *(mahalla, ishonch telefonlari, Inson markazlari)* bilish; - erta va majburiy nikoh taqiqlanganini hamda ularning huquqiy oqibatlarini bilish; - odam savdosi qurboni bo‘lgan ayollarga ko‘rsatiladigan yordam va himoya choralarini bilish; - Inson huquqlari bo‘yicha vakil *(Ombudsman)*, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining hududiy bo‘linmalari, Inson markazlari va boshqa vakolatli organlarga murojaat qilish tartibini bilish.	“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun
12. Ishsizlar	- ishsiz fuqaro deb topilish mezonlarini bilish; - ishsizlik nafaqasini tayinlash shartlari, miqdori va to‘lash muddatlarini bilish; - bo‘sh ish o‘rinlari haqida ma’lumot olish va ishga joylashtirishda ko‘maklashish xizmatlaridan foydalanish huquqini bilish; - tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun subsidiya, imtiyozli kredit va grant olish imkoniyatlarini bilish; - xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirishning qonuniy yo‘llari va qonuniy xususiy bandlik agentliklari orqali yordamdan foydalanish huquqini bilish; - kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga yo‘llanma olish, ushbu huquqlardan foydalanishni bilish; - jamoat ishlariga jalb etilish tartibi va shartlarini bilish; - mehnat shartnomasi asossiz bekor qilinganda mehnat nizolarini ko‘rib chiquvchi organ yoki sudga murojaat qilish huquqini bilish; - nogironligi bo‘lgan shaxslar, ko‘p bolali va yolg‘iz ota-onalar kabi ishsizlarga ish bilan ta’minlashda beriladigan qo‘shimcha kafolatlarni bilish; - elektron platformalar orqali davlat xizmatlaridan foydalanishni bilish, - mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan kvota ish o‘rinlari belgilanishi, shu orqali ayrim aholi toifalariga berilgan imtiyozdan foydalanish huquqini bilish.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun, “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi Qonun, “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun
13. Norasmiy band bo‘lgan fuqarolar	- rasmiy va norasmiy bandlik o‘rtasidagi farqni, mehnat shartnomasisiz ishlashning oqibatlarini *(pensiya staji shakllanmasligi, ijtimoiy sug‘urta va mehnat*	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi,

Toifa*	Tavsiyaviy talablar	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
	nizolarida himoyalanmaslik) bilish; - **“o‘zini o‘zi band qilgan shaxs”** maqomini olish, ro‘yxatdan o‘tish va soliq imtiyozlaridan foydalanish tartibini bilish; - tadbirkorlik asosida faoliyat yuritish hamda ijtimoiy soliqni ixtiyoriy to‘lash orqali pensiya stajini shakllantirish imkoniyatini bilish; - mehnat shartnomasini rasmiylashtirishni talab qilish huquqini va ish beruvchini rasmiylashtirishga undash yo‘llarini bilish; - mehnat jarohati yoki kasb kasalligi yuz berganda norasmiy ishlovchining huquqlari cheklanishi mumkinligini anglash; - bandlik organlariga murojaat qilib, rasmiy ish joyiga o‘tish va qayta tayyorlash dasturlaridan foydalanish imkoniyatini bilish; - soliq va litsenziyalash qoidalarini buzganlik uchun ma’muriy javobgarlikni bilish; - bandlikni ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish dasturlari *(mikroqarz, subsidiya)* doirasida ko‘rsatiladigan yordamlarni bilish; - mehnat inspeksiyasi va mahalliy bandlikka ko‘maklashish markazlariga murojaat qilish tartibini bilish.	Soliq kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-dekabrdagi 806-son qarori *(O‘zini-o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyat yuritish tartibi)*
14. Qishloqlar va olis hududlar fuqarolari	- yer uchastkasiga *(tomorqa, uy-joy qurilishi uchun)* egalik qilish, foydalanish va meros qilib qoldirish huquqlarini bilish; - davlat xizmatlaridan masofadan — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali *(my.gov.uz)* va mobil ilovalar orqali foydalanish imkoniyatlarini bilish; - mahalla fuqarolar yig‘inining vakolatlarini, unga murojaat qilish va ijtimoiy yordam olish tartibini bilish; - ichimlik suvi, gaz va elektr energiyasi bilan ta’minlash sohasidagi iste’molchi huquqlarini bilish; - qishloq joylarida tibbiy va ta’lim xizmatlaridan bepul foydalanish kafolatlarini bilish; - qishloq joylarida yashovchi fuqarolarga beriladigan yengillashtirilgan kredit, subsidiyalarni bilish; - notarial va boshqa xizmatlardan onlayn foydalanish imkoniyati mavjudligini bilish; - huquqbuzarlik yuz berganda eng yaqin ichki ishlar organi, prokuratura murojaat qilish yo‘llarini bilish; - bepul yuridik yordam olish huquqi va uni ko‘rsatuvchi tashkilotlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish. - davlat organlari va tashkilotlariga onlayn murojaat qilishni bilish.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Yer kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun
15. Mahkumlar	- ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning konstitutsiyaviy huquqlari *(hayot, qadr-qimmat, tibbiy yordam)* saqlanib qolishini bilish; - jazoni ijro etish muassasasining ichki tartib	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual

Toifa*	Tavsiyaviy talablar	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
	qoidalarini, o‘z huquq va majburiyatlarini bilish; - oila a’zolari va advokat bilan uchrashish, telefon orqali muloqot qilish va yozishma olib borish huquqini bilish; - shikoyat va murojaatlarni prokuratura, sud yoki boshqa vakolatli organlarga yuborish tartibini bilish; - himoyachi *(advokat)* xizmatidan foydalanish huquqini bilish; - mehnat qilish, mehnat haqi olish va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquqlarini bilish; - ta’lim olish, kasb-hunar o‘rganish huquqini bilish; - muddatidan ilgari shartli ozod etilish yoki jazoni yengilroq jazo turi bilan almashtirish shartlarini bilish; - tibbiy yordam olish huquqini bilish; - qiynoq va shafqatsiz muomala taqiqlanganini hamda bunday holatlar yuzasidan shikoyat qilish huquqi mavjudligini bilish; - ozodlikka chiqqandan so‘ng ijtimoiy moslashuv va probatsiya xizmatlaridan foydalanish imkoniyati haqida ma’lumotga ega bo‘lish.	kodeksi, “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonun, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonun, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonun
16. Jazoni ijro etib chiqqan fuqarolar	- probatsiya nazorati ostida bo‘lish muddati, shartlari va o‘z majburiyatlarini bilish; - sudlanganlik holatini qonunda belgilangan asos va muddatlarda olib tashlash yoki yo‘qotish tartibini bilish; - ishga joylashishda sudlanganlik holati bo‘yicha kamsitish umumiy holatlarda taqiqlanganini, cheklovlar faqat qonunda ko‘rsatilgan hollarda qo‘yilishini bilish; - bandlikka ko‘maklashish markazlari, kasb-hunar o‘rgatish va qayta tayyorlash dasturlaridan foydalanish imkoniyatini bilish; - ijtimoiy reabilitatsiya markazlari, vaqtinchalik turar joy va boshpanalardan foydalanish imkoniyatlarini bilish; - shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar va yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinishni tiklash tartibini bilish; - oila a’zolari bilan huquqiy munosabatlarni *(aliment, ota-onalik huquqlari)* tiklash yoki amalga oshirish tartibini bilish; - probatsiya xizmati talablarini bajarmaslik oqibatlari va javobgarligini bilish; - mahalliy davlat hokimiyati organlari va mahalla tomonidan ko‘rsatiladigan moddiy va ijtimoiy yordam turlarini bilish; - qayta jinoyat sodir etishning oldini olish maqsadida profilaktik hisobga olinishi mumkinligini hamda bu bilan bog‘liq huquq va majburiyatlarni bilish.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Mehnat kodeksi, Oila kodeksi, “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonun, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun

Toifa*	Tavsiyaviy talablar	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
17. Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oila vakillari	- ijtimoiy reyestrning uch toifasini va har biriga kiritish mezonlarini bilish: “davlat ta’minotidagi oila”, “kambag’al oila”, “kambag’allik chegarasidagi oila”; - reyestrga kiritishni rad etish asoslarini bilish *(ortiqcha ko’chmas mulk, avtotransport, bank depoziti, qimmatli qog’ozlar va boshqalar);* - reyestrga kiritish uchun ariza berish usullarini bilish; - bolalar nafaqasi va moddiy yordamni tayinlash shartlari, to’lash muddatlari va to’xtatish asoslarini bilish; - “Kambag’al oila” toifasida mehnatga layoqatli a’zolarning rasmiy bandligini ta’minlash majburiyatini va uning bajarilmasligi oqibatlarini bilish; - oila holati qayta baholanishini, toifa o’zgarishini va reyestrdan chiqarish asoslarini bilish; - oilaga individual reja tuzilishini va unga kiritiladigan yordam yo‘nalishlarini bilish; - “Davlat ta’minotidagi oila” toifasi uchun ijtimoiy yordam paketini bilish *(imtiyozli kredit, subsidiyalar)*; - oilaviy tadbirkorlik va boshqa davlat dasturlari doirasidagi imkoniyatlarni ham bilish; -og‘ir hayotiy vaziyatga tushgan oilani “mahalla yettiligi” tavsiyasi bilan reyestrga kiritish tartibini bilish; - reyestr bo‘yicha qarorlar ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqini bilish. - davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlarni *(vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug‘ish, ishsizlik)* hamda bandlikka ko‘maklashish xizmatlaridan foydalanish tartibini bilish.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Mehnat kodeksi, - “Ijtimoiy ish to‘g‘risida”gi Qonun, “Davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”gi Qonun, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PF – 258-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 29-yanvardagi 35-son qarori
18. Barcha fuqarolar *(umumiy talablar)*	- Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarni, qonunlarga rioya qilish hamda boshqalarning huquqlari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyatini bilish; - huquq buzilganda qaysi tashkilotga murojaat qilish, sudga shikoyat berish, advokat va qonunchilikda belgilangan hollarda davlat hisobidan yuridik yordam olish tartibini bilish; - davlat organlariga ariza, taklif va shikoyat berish tartibini bilish; - davlat xizmatlari markazlari va my.gov.uz orqali xizmat olish, zarur hujjatlar, to‘lovlar va muddatlarni tekshirish, OneID hamda elektron raqamli imzodan xavfsiz foydalanishni bilish; - shaxsga doir ma’lumotlar va shaxsiy hayot daxlsizligiga oid huquqlarni, pasport ma’lumotlari, akkaunt parollari va elektron imzo kalitlarini himoyalash zarurligini bilish; - soxta havola, qo‘ng‘iroq, yutuq va’dalarini aniqlash, SMS-kodlarni begonalarga bermaslik, firibgarlik yuz berganda bank va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tezkor murojaat qilishni bilish; - oldi-sotdi, ijara, xizmat, kredit, bo‘lib to‘lash,	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi, Oila kodeksi, Soliq kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonun, “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun, “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun

Toifa*	Tavsiyaviy talablar	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar
	garov va kafillik shartlarini tushunish, imzolashdan oldin to‘lovlar, javobgarlik va shartnomani bekor qilish shartlarini tekshirishni bilish; - tovar va xizmatlar, jumladan onlayn xaridlar bo‘yicha to‘liq axborot olish, chek va kafolat hujjatlarini saqlash, nuqsonli tovar yoki sifatsiz xizmat yuzasidan talab va shikoyat berish tartibini bilish; - mehnat shartnomasi, ish haqi, ish vaqti, dam olish, ta’til va mehnat xavfsizligi qoidalarini, ishdan bo‘shatish ustidan shikoyat qilish hamda xorijga qonuniy ishga ketish asoslarini bilish; - nikohning huquqiy oqibatlari, er-xotinning teng huquqlari, umumiy mol-mulk, aliment, ota-onaning farzandni ta’minlash va tarbiyalash majburiyatlarini bilish; - oilada, ishda, ta’lim muassasasida va internetda zo‘ravonlik hamda kamsitishni aniqlash, yordam so‘rash va qonunchilikda nazarda tutilgan himoya choralaridan foydalanishni bilish; - ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni rasmiylashtirish, kadastr, ijara, oldi-sotdi, hadya, vasiyatnoma va merosni qabul qilishning asosiy tartiblarini bilish; - bemorning axborot olish va tibbiy sir saqlanishiga oid huquqlarini, pensiya, nafaqa, ijtimoiy xizmat va yordam olish shartlari hamda murojaat yo‘llarini bilish; - o‘ziga taalluqli soliqlar va to‘lovlarni, daromad olish hamda o‘zini o‘zi band qilishdagi majburiyatlarni, imtiyozlardan foydalanish va noto‘g‘ri hisob-kitob ustidan shikoyat qilish tartibini bilish; - yo‘l harakati, jamoat tartibi, yong‘in xavfsizligi va tabiatni muhofaza qilish qoidalarini, korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklar oqibatlarini, huquqbuzarlik haqida xabar berish huquqlarini bilish.	

Izoh:

*** aholining muayyan toifalari** – yoshi, kasbi, ijtimoiy holati, bandligi, ehtiyoji yoki boshqa umumiy xususiyatlari asosida ajratiladigan aholi guruhi.

1. Mazkur Tavsiyaviy talablar fuqaroning kasbiy faoliyati yoki ijtimoiy holati bilan bevosita bog‘liq huquq va majburiyatlarni bilish bilan birga, ularga amal qilishni ham anglatadi.

2. Tavsiyaviy talablarni o‘zlashtirish darajasi tegishli toifalar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish, fuqarolar bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar, sayyor qabullarda ko‘tarilayotgan masalalar, kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish; ijtimoiy tarmoqlardagi testlar va boshqalar orqali aniqlanadi.

3. Ushbu Tavsiyaviy talablardan huquqiy targ‘ibot tadbirlarini ta’lim va tibbiyot muassasalari, maktablar, mahallalar, tadbirkorlik subyektlari va boshqa tegishli joylarda manzilli tashkil qilishda, targ‘ibot materiallarini tayyorlashda foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 7-sentabrdagi “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonuni;
3. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni;
4. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 23-iyuldagi “Ijtimoiy ish to‘g‘risida”gi Qonuni;
5. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni;
6. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni;
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni;
8. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni;
9. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni;
10. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni;
11. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni;
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi “Huquqiy axborotni proaktiv shaklda yetkazish tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 160-son Farmoni.

II. Xalqaro hujjatlar va tadqiqotlar

13. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi.

III. Internet manbalari:

14. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – Lex.uz;
15. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. – stat.uz;
16. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Fuqarolarni firibgarlikdan ogohlantirish materiallari. – cbu.uz;
17. Soxta treyderlar firibgarligi sxemalari. – Kun.uz.